

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ
ВАЗИРЛИГИ
А.ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ
ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ

BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

«Himoya qilishga ruxsat beraman»
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi fakulteti
dekani

_____ prof. To'raqulov X.

«___» _____ 2011 y.

5141600 – boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini
olish uchun

“Birinchii sinfda sonlarni raqamlashga o`rgatish”

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi fakulteti IV
kurs talabasi Haqnazarova T

Ilmiy rahbar: Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va
amaliyoti kafedrası katta dotsenti
p.f.n. Suvonqulov A.

Ishni himoyaga tavsiya etaman: _____
(imzo) (ilmiy rahbar ismi va sharifi)

BMI «BTN va A » kafedrası yig'ilishining qarori bilan (Qaror №
, 2011 y.) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____
(ismi va sharifi) (imzo)

JIZZAX– 2011

KIRISH

1-BOB. SONLARNI RAQAMLASHNI O'RGANISH METODIKASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

- 1.1 Sonlarni nomerlashni o'rganish metodikasining umumiy masalalari
- 1.2 Nomerlash metodikasi bo'yicha o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalariga lariga qo'yiladigan talablar
- 1.3. Boshlangich sinflarda nomerlash metodikasi bo'yicha asosiy ta'lim dasturi mazmunining me'yorlari
- 1.4 Darsliklarga nomerlash metodikasiga qo'yiladigan talab va vazifalar

II-BOB. 1 SINFDAN SONLARNI RAQAMLASHNI O'RGANISH

- 2.1. Tayyorgarlik davri.
- 2.2. O'nlik ichida sonlarni o'qish, yozish va taqqoslash.
- 2.3. Yuzlik ichida sonlarni nomerlash
- 2.4. Yangi pedagogik texnologiyadan foydalanib nomerlashni o'rganish.
- 2.5. Didaktik yinlardan foydalanish.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mustaqillik yillarida yurtimizda orttirgan taraqqiyot tajribasi tahlil qilinib, milliy istiqlol g'oyalari tamoyillariga asoslanib ijtimoiy hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida ta'lim - tarbiya jarayoni o'zgardi. Bu jarayon ta'lim sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini yaratib berishdan boshlandi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim va tarbiyani istiqlol g'oyalari asosida yuksak darajaga ko'tarish - ham davrimizning qat'iy talabi, ham jamiyatni ijtimoiy topshirig'idir.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisida (1997 yil 29 avgust) "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Bu hujjat ta'lim sohasida muhim burilish yasadi. Hujjatda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, ta'lim tizimi, uning boshqaruv tarkibi, pedagog xodimlarning huquq va burchlari aniq belgilab berildi.

Ta'lim sohasidagi bosh maqsad - ta'lim va tarbiyaning demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an'analari va urf-odatlarini, shuningdek, umumbashariy qadriyatlar asosida ta'lim - tarbiya jarayoni mazmunini tubdan o'zgartirish, shu maqsadda pedagogik jamoalarning tashabbuskorligiga keng imkoniyat ochib berishdan iboratdir.

Prezident Islom Karimov: "Aslida ta'lim-tarbiya sohasidagi islohatning chegarasi yo'q. Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham, tarbiya ham zamon o'rtaga qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra muttasil ravishda o'zgarib-yangilanib boraveradi" deb ta'kidlab o'tganidek mustaqillik sharoitida mamlakat xalq ta'limini qayta qurishning yangi yo'li ta'limning yangi modeli yaratildi.

"Barkamol avlod yili" davlat dasturi to'g'risidagi Qarorida "o'qitishning sifatini oshirish, DTS, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish bilan birga, ta'lim jarayoniga yangi axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimediya vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida zamonaviy turdagi o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash ... samarali tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish" muhim vazifalarimizdan ekanligi alohida ta'kidlangan.

Darhaqiqat, o'zbek xalqining buyuk mutafakkirlari ham uzoq o'tmishdayoq olib borgan tadqiqotlari va amalga oshirgan kashfiyotlarida insonlarni odobli, mehnatsevar,

vatanparvar qilib tarbiyalash yo'l - yo'riqlarini ko'rsatib o'tganlar. Bunga Muso al-Xorazmiy (783-850), Ahmad al-Farg'oni (797-865), Javhariy, Mirzo Ulug'bek (2394-1449), faylasuf va huquqshunoslar Abu Nasr Forobiy (873-950), Imom al-Buxoriy (810-870), Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824 - 892) , Burhoniddin al-Marg'inoniy(1123 - 1197), Nasafiy; qomusiy olimlar Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Ibn Sino(980 - 1037); tilshunos, tarixchi va shoirlar Mahmud Qoshg'ariy (XI asr), Yusuf Xos Xojib (XI asr), Mahmud az-Zamaxshariy (1075-1144), Alisher Navoiy (1441 - 1501); Zaxiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) va boshqalarning bizga qoldirgan boy meroslari fikrimizga asos bo'ldi. Bu allomalarimizning asarlarida bolalarning o'qishi, mehnati, odobi va bu ishda muallimlarning vazifalariga katta o'rin berilgan. Jumladan, Nasriddin Tusiy (1201 - 1274) fikri bo'yicha o'qituvchi o'quvchilarni aql-zakovatiga ta'sir qilishi uchun, o'quvchilarni ishonchini qozonish va qalbidan joy olish mas'uliyatini his qilishi lozim. Forobiy o'qituvchi faoliyatida yoshlarning axloqiy normalari va amaliy ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishga yo'naltirilganligi asosiy vazifalardan biri ekanligini ifodalaydi. Ibn Sino fikricha, o'qituvchilik olijanob va foydali faoliyatdir. U ilm - narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishi o'qituvchi faoliyatida muhim hisoblanishini ta'kidlab o'tadi. Beruniy pedagogik ijodida tarbiyaning maqsadi, vazifalari va o'rni, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik asosida qurilgan. Beruniyning pedagogik g'oyalaridan eng muhimi bilimni puxta va mustahkam egallash zarurligidir .

O'zidan oldin o'tgan buyuk allomalar, xususan, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy an'analarini davom ettirgan va ularni XII-XIII asrlarda rivojlantirgan olimlardan biri Mahmud Ibn Muhammad ibn Umar al-Chag'iniydir. Albatta, boshqa mutafakkirlar qatori al- Chag'iniy ham dunyoning xudo tomonidan yaratilganini e'tirof etadi, lekin shu bilan birga u "Mulahhas fi hayat al-basita") "Sodda shaklli narsalarning qisqacha bayoni" asarida tabiat o'zining maxsus qonunlariga ega bo'lib, ma'lum faollik ko'rsatishi mumkin deb yozadi: "Olam, Yer, suv, havo, o't (olov)" va osmon jismlarining yig'indisidan iborat. Ularning hammasi harakatda. Yana xudodan boshqa hamma borliqqa olam deb aytamiz.

Tabiat kuchlari jism mavjudligining asosidir. U (tabiat) barcha harakat va sokinlikning manbasidir. Demak, al-Chag'iniyning fikricha, tabiat "tabiiy kuchga" egadirki, ushbu kuch uning ichki faolligini zaruriy shartga aylantiradi.

Olimlarimizning ilmiy merosini chuqur o'rganib, uni ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etish har bir ma'naviyatli va ijodkor mutaxassisning muqaddas burchidir.

Shu paytgacha psixologik-pedagogik tadqiqotlarda boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning ilmiy tahlili birinchidan, axborotlarni boyitib borish orqali ta'lim mazmunini o'zgartirish, didaktik elementlarni kattalashtirib o'zlashtirish, (B.P.Erdniyev, P.M.Erdniyev), har bir fanning asosiy g'oyasini ajratish (I.D.Zverev, V.N.Maksimova, R.A. Mavlonova, A.Abduqodirov, A.M.Markushevich) nazariy bilimlarning rolini oshirish (V.V. Davidov, A.K. Markova, J. Ikromov, A.M. Pishkalo, T. To'laganov, D.B.Elkonin) yo'nalishlarida amalga oshirilgan.

Ikkinchidan, sonlarni o'rganish bo'yicha o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan aqliy hatti-harakatlar tizimini aniqlashga qaratilgan. Bunda o'qitish va o'qish faoliyatlari chegaralanadi; o'quvchilarda aqliy faoliyat tizimini maqsadga muvofiq shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish (N. Azizxodjayeva, Yu.K.Babanskiy, O.Rozikov, N.F.Talizina, T.I.Shamova, D. Shodiyev, G.I.Shukina va boshqalar) masalalari ustida tadqiqotlar amalga oshirildi.

Uchinchidan, ayrim tadqiqotchilar o'quvchilarning funksiyalarini to'la aniqlash, ta'lim mazmunining tuzilishi va komponentlarini aniqlash bilan bog'laydilar. (V.P. Bespalko, D.D. Zuyev, B. Qodirov, E. G'oziyev, G'.B. Shoumarov va boshqalar);

To'rtinchidan, o'qitishning tashkiliy shakllariga bog'liq ekanligi qayd qilinadi. Bunday yondoshish boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun maqsadga erishish yo'llari, usullarini muhokama qilish uchun qulay sharoit yaratishi, o'zaro ishonch muhitini yaratishiga urg'u beriladi (Sh.A. Amonashvili, M.V. Matyuxina, R.A. Mavlonova va boshqalar);

Beshinchidan, psixologik-pedagogik tadqiqotlarda boshlang'ich ta'lim samaradorligini o'quvchilarning motivlariga bog'liq ekanligi qayd etilmoqdakim, bunda ham bilish faoliyatining turli motivlarini shakllantirish masalalari ochib beriladi. (A.K. Markova, M.V. Matyuxina, M.X. To'xtaxodjayeva, S. Annamurodova, G.I. Shukina, B.P.Erdniyev, P.M.Erdniyev va boshqalar).

Mavjud tadqiqotlar ushbu muammoning yo'nalishlarini ma'lum darajada aks ettirsa-da, bu nomerlashni o'rganish tizimining didaktik asoslarini ta'minlay olmaydi. Bu esa bizning malakaviy bitiruv ishimizning dolzarbligini ko'rsatadi.

BMI ning tadqiqot obyekti boshlang'ich maktab o'quvchilarining 1 sinflarida nomerlashni o'rganish faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'quv jarayoni.

BMI bo'yicha tadqiqotning predmetini boshlang'ich sinflarda, jumladan 1 sinflarda matematikani o'qitishda muammoli ta'lim vositasida o'quvchilarning nomerlash metodikasini o'rganish faoliyatini shakllantirish tizimi tashkil etadi.

BMIning tadqiqot maqsadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nomerlash metodikasini o'rganish jarayonining uzviyligining nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Qo'yilgan maqsadlarga asoslanib, BMIning tadqiqot vazifalari:

1. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida nomerlash metodikasini o'rganish faoliyati shakllanganligining mohiyati va bosqichlarini tashxis qilish;

2. Matematika kursi materialida boshlang'ich sinflar o'quvchilari nomerlash metodikasi mazmuni va uni egallashning texnologik shart-sharoitlarini aniqlash.

3. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nomerlash metodikasi" tushunchasining mazmunini yoritish va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

4. 1 sinf o'quvchilari nomerlash metodikasini o'rganish faoliyatini shakllantirishning didaktik tizimini, shart-sharoitlari, bosqichlari va o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyatining shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish;

BMI bo'yicha tadqiqotning nazariy va metodologik asosi sifatida ta'lim va boshqaruv sohasidagi bilish faoliyati, psixologik va pedagogik qonuniyatlari va yondashuvlar, umuminsoniy qadriyatlarga tayandik. Ishning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning barkamol shaxsni tarbiyalash haqidagi dasturiy fikrlari tashkil etadi.

BMI ning tadqiqot metodlari mavzuga oid adabiyotlarni o'rganishga asoslangan nazariy va tarixiy tahlillar; tajribalar, kuzatishlar, anketa so'rovlarini uyushtirish, suhbatlar Respublika foydalanilayotgan o'quv qo'llanmalari, DTS va dastur, darsliklarini didaktik tahlil qilish, o'yin elementlari ishlanmalarini yaratish va sinab ko'rish va h.k lardan foydalanildi.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikkita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-BOB. SONLARNI RAQAMLASHNI O'RGANISH METODIKASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Sonlarni raqamlashni o'rganish metodikasining umumiy masalalari

Iqtisodiyot, ishlab chiqarish va ijtimoiy soha doiralaridagi islohatlarni amalga oshirish samaradorligi respublikani oliy malakali kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rishni talab qiladi. Respublikada kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilishi, uning keng muhokama qilinishi va Oliy majlisning 9-sessiyasida kadrlar tayyorlash milliy dasturining tasdiqlanishi, Prezident I.Karimovning sessiyadagi ta'limni rivojlantirish va strategik yo'nalishlarni belgilab beruvchi nutqi halq ta'limi tizimidagi eng muhim voqyealardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 6-oktyabrdagi "Xalq ta'limi tizimini va kadrlar tayyorlashni tubdan isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash to'g'risida"gi farmonida kadrlar tayyorlashdagi barcha ishlar ustivor soha ekanligi ta'kidlangan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning muhim tarkibiy qismlaridan biri ta'limni standartlashtirish, zamonaviy test texnologiyalari asosida ta'lim jarayonidagi sifatiy ko'rsatgichlarning monitoring tizimini yaratishdir. Maktablar va Oliy o'quv yurtlarida ko'p bosqichli test tizimini ishlab chiqish va joriy etish ta'lim sifatini ko'tarishga pedagoglar, o'qituvchi va talabalarning ta'lim natijalari uchun mas'ulligini oshirishga imkon beradi.

Prezidentimiz I.Karimov halq ta'limini isloh qilish to'g'risidagi mavzusida, ayniqsa, boshlangich ta'limga e'tibor berish, uni malakali o'qituvchilar bilan ta'minlash zarurligini eslatib, boshlangich ta'lim halq ta'limining poydevori, ya'ni asosi, deb aytgan.

Shuning uchun boshlangich ta'limning dasturini, darsliklarini va ish tartiblarini qayta ko'rib chiqish zarurligi kelib chiqadi. Ayniqsa, boshlangich ta'lim predmetlari ichida matematikani o'qitish asosiy o'rin tutadi. Matematika dasturi o'z ichiga avvalo natural sonlar bilan to'rt arifmetik amal bajarishni oladi. Bu matematikaning yadrosini tashkil qiladi. Shu bilan birga algebra va geometriyaning asosiy tushunchalari, asosiy miqdorlar kiritilgan, ular nomerlash metodikasi bilan uzviy va zaruriy o'rinda qo'shib o'qitiladi.

Nomerlash metodikasi natural sonlar va nol haqidagi ma'lumotlarni o'nlik, yuzlik, minglik, ko'p xonali sonlar konsentrlari bo'yicha kiritishni nazarda tutadi.

Natural sonlarni nomerlash va ular ustida arifmetik amallar bajarish boshlangich matematika kursini asosini tashkil qiladi. Unga qo'shib miqdorlar, algebra va geometriya elementlari o'qitiladi. Dasturda natural sonlar va nol haqidagi ma'lumotlarni asta-sekin o'nlik, yuzlik, minglik va ko'p xonali sonlar konsentrlari (takroriy) kiritish nazarda tutiladi. Bu o'nlik sanoq sistemasining xususiyatlari bilan, og'zaki va yozma nomerlashni takror-takror qo'llash orqali beriladi.

1-o'nlikni nomerlashda 1-10 sonlarini sanash, nomerlarni aytish, ketma-ketligini, katta-kichikligini o'zlashtirish nazarda tutiladi. 1-o'nlik bilan nol soni ham birga o'rgatiladi. Uni bo'sh to'plamning xarakteristikasi sifatida berilgan. Nomerlash davomida 11-20, keyin 21-100 ichida sonlarni nomerlash qaraladi.

1-, 2-,o'nliklarni hosil qilish, birgalikda o'nliklarni, ya'ni o'nli sanoq sistemasining mohiyati tushuntiriladi. Keyingi sinflarda 100 ichida, 1000 ichida va ko'p xonali sonlar og'zaki va yozma nomerlash, arifmetik amallar bajarish, komponentlarning nomlarini o'rgatishlar amalga oshiriladi.

Bu bosqichda o'qituvchining vazifasi bolalarda sanash malakalarini shakllantirish va 1-10 sonlar kesmasida natural qatorning tuzilishini ochib berish va bu asosda sonni natural ketma-ketlikning hadi sifatida ta'riflashdan iborat.

Buning uchun o'quvchilar quyidagilarga erishishlarini ta'minlash zarur:

- 1) 1 dan 10 gacha sonlar ketma-ketligini yaxshi o'zlashtirib olishlari kerak;
- 2) Narsalarni sanashni va sanash tartibi ko'rsatilganda har bir narsaning berilgan guruhdagi tartib nomerini aytib bera olishlari kerak;
- 3) Sonlarning 1 dan 10 gacha qatoridagi har bir son qanday hosil bo'lishini ongli o'zlashtirishlari kerak;
- 4) Raqamlarni o'qib olishlari va har bir raqamni narsalarning mos soni bilan mos qo'ya olishlari kerak;
- 5) Sonlarni taqqoslashni bilishlari kerak;
- 6) 2,3,4,5 sonlarning ikkita qo'shiluvchilardan iborat sonlar tarkibini barcha hollarini mustahkamlab, o'zlashtirib olishlari kerak;
- 7) $2+1$, $4-1$, $1+3$, va hokazo ko'rinishdagi mat-k yozuvlarni o'qiy olishlari va bunday yozuvlarni aniq rasmlar bilan mos qo'yishlarini bilishlari kerak.

8) Doira, kvadrat, uchburchakni bir-biridan farq qila bilishlari va nomini ayta olishlari kerak.

Birinchi o'nlik ustida ishlashda uch bosqich ajratilib turiladi:

- 1) Tayyorgarlik davri,
- 2) Nomerlashni o'rganish,
- 3) Arifmetik amallar (qo'shish va ayirish)

Tayyorgarlik davrining asosiy vazifasi bolalarning bilim, o'quv malakalarini smetalashtirish va to'ldirish, nomerlashni o'rganishga o'tishda zarur bo'ladigan bilimlarni egallashlariga sharoitlar yaratish, birinchi sinfga kelgan bolalarning mat-k tayyorgarligini o'rganish.

100 ichida sonlarni nomerlashni o'rgatishda o'qituvchining vazifasi bolalarga predmetlarni bittalab va gruppalar sanashga o'rgatish:

100 ichida sonlarni o'qish va yozishga o'rgatish xona birliklari bilan tanishtirish.

Nomerlashni o'rgatishda ikki bosqichga ajratiladi:

11-20 sonlarni nomerlash va 21-100 sonlarni nomerlash.

Bolalarga 20 ichida, so'ngra 100 ichida sonlarni o'rganish tayyorgarlik bosqichi olib borilib so'ngra og'zaki nomerlash va yozma nomerlash amalga oshiriladi.

20 ichida sonlarni nomerlashga doir bilim va malakalarni mustahkamlashga doir ish davomida o'quvchilar bir xonali son va ikki xonali son terminlari bilan tanishadilar. Mas: 3, 8, 10, 12, 17, 20.

100 ichida sonlarni nomerlashni o'rganish metodikasini o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi kunikmalar, malakalarni egallab olishlari kerak:

1. 100 ichida nomerlashda sonlarning nomlarini o'zlashtirish, ular o'nliklardan va birliklardan qanday hosil bo'lishini tushuntirish

2..Sanoqda sonlarning kelish tartibini bilish .Sonlarning natural ketma-ketligidagi o'rinlarini bilganlikka asoslanib sonlarni taqqoslab olish. (45 katta 35, chunki to'rt o'nlik katta uch o'nlik.....).

3. 100 ichida sonlarni yozish va o'qiy bilish

4.Natural ketma-ketlikni bilganlikka asoslanib sonlarni

(39+1, 50-1, 27+1, 27-1, 75-1.....) ko'rinishdagi) qo'shish va ayirishni bilish sonlarni xona qo'shiluvchilarining yilindisi bilan (46= 40+6) almashtirish ni bilish..

100 ichida sonlarni nomerlashni o'rganishda o'qituvchining vazifasi bolalarga quyidagilarni o'rgatishdan iborat.

1. Predmetlarni bittalab, o'ntalab, va yuztalab gruppalariga birlashtirib yozish.

2. 100 ichida sonlarni o'qish va yozishni hamda ularning natural qatorida kelish tartibini bilish.

3. Sonlarni yuzliklardan, o'nliklardan va birliklardan hosil qila olish (ya'ni sonlarning o'nli tarkibini bilish)

4. O'ngdan chapga hisoblaganda birliklar (xona birliklari) o'nliklar (2-xona) yuzliklar (3-xona) qaysi o'ringa yozilishini aniqlash.

5. Sonni (ikki va uch xonali) xona qo'shiluvchilarining yilindisi shaklida ifodalash va berilgan sonda istalgan xona birligining umumiy sonini topish. 1000 ichida sonlarni og'zaki nomerlashga doirligini bir necha bosqichga ajratish mumkin.

1. Tayyorlash ishi.

- Bu bosqichning asosiy vazifasi 100 ichiga nomerlashga doir materialdan 1000 ichida sonlarni nomerlashga yordam beradigan ishni takrorlashdan iborat.

- Avvalo o'quvchilarni yangi sanoq birligi -minglik bilan tanishtirish kerak. Bu tanishtirishni ko'rsatmali qo'llanmalar yordamida amalga oshiriladi.

- Og'zaki nomerlashni o'rganishda navbatdagi qadam o'quvchilarni natural qatorning 100 dan 1000 gacha bo'lgan sonlar bilan tanishtirish.

- Ishning navbatdagi bosqichida uch xonali sonlarning o'nli tarkiblarini, yuzliklardan, o'nliklardan va birliklardan hosil bo'lishi.

- Yirik birliklar bilan sonlarni maydaroq birliklar bilan ifodalangan sonlar bilan almashtirish (ismli sonlar)

2. Yozma nomerlash.

Ko'p xonali sonlarni nomerlashga o'rganishda o'qituvchining asosiy vazifasi ya'ni sanoq birligi-minglik tushunchasini tarkib toptirish, sinf tushunchasi mohiyatini ochish va shu asosda ko'p xonali sonlarni o'qish va yozishga o'rgatish, bolalarning o'nlik sanoq sistemasiga oid bilimlarni, natural ketma-ketlik, sonlarni yozishning mazmunan prinsipiga oid bilimlarini aniqlash va umumlashtirishdan iborat.

Ko'p xonali sonlarni nomerlashni (og'zaki va yozma) o'rganish ishini bir necha bosqichga bo'lish mumkin.

1. Tayyorgarlik ishi.

Bu bosqichning vazifasi bir xonali, ikki xonali va uch xonali sonlarni nomerlashning asosiy masalalarni takrorlash.

1) Sonlarni o'qing. 526, 308, 700, 999, 1000, 528. Bu sonlarning har birida hammasi bo'lib qancha o'nlik, birlik, yuzlik bor?

2) Quyidagilardan iborat sonlarni yozing: 8 yuzl, 2 o'nl, 6 bir; 9 yuzl, 4 bir.

3) Mingda nechta yuzlik, o'nlik, birlik bor?

4) 2, 5, 3 raqamlardan foydalanib mumkin bo'lgan hamma uch xonali sonlarni yoz. Shu sonlarning birini uning xona qo'shiluvchilari yilindisi shaklida tasvirla.

II. Nomerlashni o'rganish.

Bu bosqich bolalarni 1-sinf birliklar sinfi va 2-sinf mingliklar sinfi bilan, har bir sinf xonalarining nomlari bilan tanishtirishdan iborat.

III. Ikkinchi sinf sonlarining hosil bo'lishi, o'qilishi va yozilishi bilan tanishtirish.

IV. Olti xonali sonlarning hosil bo'lishi, o'qilishi va yozilishi bilan tanishtirish.

V. O'quvchilar bilim malakalarini mustahkamlash.

VI. Millionlar sinfining hosil bo'lishi bilan tanishtirish.

1.2 Nomerlash metodikasi bo'yicha o'qituvchi va o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

I. Har bir o'qituvchi:

1. Konsentrlar bo'yicha "nomerlash" mavzusini mazmuni va vazifalarini bilishi;

2. O'quvchilarni o'zlashtirishni takomillashtiradigan mashqlar tizimini ishlash jarayoni:

a) fanlar aro aloqadorlik va sonlarni xonalar bo'yicha o'zaro uzviyligiga bog'liq metodlar:

b) natural sonlar qatorining hosil qilish prinsiplari:

v) Sonning o'nli tarkibi to'g'risida:

g) konsentrlar bo'yicha sonlarning o'qilishi va joylashuvi:

d) yangi sanoq birligining hosil qilinishi:

e) konsentrlar bo'yicha sonlarning joylashuv tarkibi:

j) xona birliklari bo'yicha munosabat:

z) sonlar tarkibining o'qilishi va yozilishini bilishi kerak.

Mavzuni o'rganish jarayonida ko'rgazmalilikdan foydalanish.

II. Bilish kerak:

- mavzu bo'yicha dastur talablari asosida sonlarni xona qushiluvchilari yig'indisi shaklida tasvirlash;
- darslik bo'yicha ko'rgazmalar asosida suhbatlar olib borish;
- o'quv materialini o'zlashtirishini mustahkamlashga va kuchaytirishga oid didaktik o'yinlar tanlash;
- bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil bo'lishi bo'yicha turli metodlar va mashqlar, mustaqil ishlar tuza olish;

Turli xil ko'rinishdagi ko'rgazmali vositalar asosida yangi materialni va o'tilgan materiallarni mustahkamlash va bayon qila olish. Nomerlash metodikasi bosqichda o'qituvchining vazifasi bolalarda sanash malakalarini shakllantirish va 1-10, 100 ichida, 1000 ichida va ko'p xonali sonlarni sanay olishini, o'qishi, yozishi, taqqoslash usullarini bilishi, sinflarga ajrata olishi, didaktik prinsiplar asosida natural qatorning tuzilishini ochib berish va bu asosda sonni natural ketma-ketlikning hadi sifatida ta'riflashdan iborat.

Buning uchun o'quvchilarning quyidagilarga erishishlarini ta'minlash zarur:

- 1) o'quvchilarning miqdor va raqamlar tartibi haqidagi tushunchalari aniqlashadi;
- 2) Predmetlarni sanashni shakllantirish;
- 3) 1 dan 10 gacha sonlar ketma-ketligini yaxshi o'zlashtirib olishlari kerak;
- 4) Narsalarni sanashni va sanash tartibi ko'rsatilganda har bir narsaning berilgan guruhdagi tartib nomerini aytib bera olishlari kerak;
- 5) Sonlarning 1 dan 1000 000 gacha qatoridagi har bir son qanday hosil bo'lishini ongli o'zlashtirishlari kerak;
- 6) Raqamlarni o'qiy olishlari va har bir raqamni narsalarning mos soni bilan mos qo'ya olishlari kerak;
- 7) Sonlarni taqqoslashni bilishlari kerak;
- 8) 2,3,4,5,6,7,8,9,10 sonlarning ikkita qo'shiluvchilardan iborat sonlar tarkibini barcha hollarini mustahkamlab, o'zlashtirib olishlari kerak;
- 9) $2+1$, $4-1$, $1+3$, va hokazo ko'rinishdagi matematik yozuvlarni o'qiy olishlari va bunday yozuvlarni aniq rasmlar bilan mos qo'yishlarini bilishlari kerak.

10) miqdorlar yordamida predmetlarni o'zaro taqqoslash, "Ko'p", "Kam", "Ortiq", "Baland", "Past" kabi tushunchalarni taqqoslay olishi:

11) Doira, kvadrat, uchburchakni bir-biridan farq qila bilishlari va nomini ayta olishlari kerak.

1.3. Boshlangich sinflarda nomerlash metodikasi bo'yicha asosiy ta'lim dasturi mazmunining me'yorlari

1-sinf uchun matematikadan asosiy ta'lim dasturi mazmunining me'yorlari

Son va hisoblashlar

Natural sonlar qatoridan birinchi yuzlik sonlarining atalishi va ketma-ketligi. Narsalarni to'g'ri va teskari tartibda sanash.

1–100 sonlarini raqamlar bilan belgilash.

Sonlarni taqqoslash (teng, teng emas, katta, kichik), $\ll$, $\gg$, $=$ belgilari.

0 soni va uni belgilash.

Qo'shishning asosiy xossasi. Qo'shishda 0 ning xossasi. Ayirishning xossasi. Ayirishda 0 ning xossasi. Qo'shish bilan ayirish orasidagi munosabat.

10 ichida qo'shish jadvali, xuddi shunday ayirish amali uchun.

Quyidagi ko'rinishdagi ayirish va qo'shishni bajarish: $9 - 9$, $0 + 5$, $7 - 0$, $8 + 0$.

100 ichida sonlarni xonadan o'tmasdan qo'shish va ayirish.

Qo'shish va ayirishga doir va tarkibli arifmetik masalalarni yechish.

Tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

Son va hisoblashlar

matematikani o'rganish natijasida o'quvchi quyidagilarni:

Bilishi kerak:

– atamalar: yig'indi, qo'shish, ayirma, ayirish, kam, ortiq, ... ta kam, ... ta ortiq.

– ishora (belgi) va belgilashlar: $+$, $-$, l , kg , 0 , 1 , 2 , 3 , 4 , 5 , 6 , 7 , 8 , 9 ni;

– bir xonali sonlarni qo‘shish jadvali (10 ichida) va ayirishning shunga mos hollarini (avtomatizm darajasiga yetkazilgan ko‘nikmalar).

Uddalay olishi kerak:

- 0 dan 100 gacha bo‘lgan sonlari o‘qish va yozishni;
- natural sonlar qatorini tahlil qila olish (sondan oldin va keyin keylovchi sonni aytishni; sanoqda tushirib qoldirilgan sonlarni topishni va shu kabi)ni;
- natural sonlarni «>», «<», «=» belgilaridan foydalanib taqqoslashni;
- «... ta otiq», «... ta kam» munosabatlarini matematik amallar bilan to‘g‘ri bog‘lay olishni;
- qo‘shishning asosiy xossasini bilish va undan hisoblashlarda foydalanishni;
- 100 ichida o‘nlikdan o‘tmasdan sonlarni qo‘shish va ayirishning o‘rganilgan xossalarini qo‘llashni;
- qo‘shish va ayirishga doir sodda arifmetik masalalarni yechish.

Bilishi kerak:

- atamalar: nuqta, kesma, doira, kvadrat, uchburchak, ko‘pburchak, uzunlik, santimetr, detsimetr, metrni;
- ishora (belgi): sm (santimetr), dm (detsimetr), m (metr), kg (kilogramm) ni.

Uddalay olishi kerak:

- kesma uzunligini chizg‘ich yordamida o‘lchash, kesma uzunligini santimetrlarda, detsimetrlarda, detsimetr va santimetrlarda yozishni;
- chizg‘ich yordamida berilgan uzunlikdagi kesmani chizishni;
- rasmlardan, modellardan, atrofdagi narsalardan eng sodda geometrik shakllar – uchburchak, doira, kvadrat, ko‘pburchak, kesmalarni topa olishi; bu shakllarni bir-biridan farqlashni;
- qismlardan geometrik shakllarni tuzishni, shakllarni qismlarga ajratishni.

2-sinf uchun matematikadan asosiy ta’lim dasturi mazmunining me’yorlari

Son va hisoblashlar

100 ichida sonlarni xonadan o'tmasdan qo'shish va ayirish (takrorlash).

18 ichida bir xonali sonlarni o'nlik orqali o'tib qo'shish va ayirish.

100 ichida sonlarni xona birliklari orqali o'tib og'zaki va yozma qo'shish hamda ayirish usullari.

Qo'shish va ayirish amallarining tarkibiy qismlari va natijalari orasidagi o'zaro bog'lanish (noma'lum tarkibiy qismni topish).

Yig'indi va qoldiqni topishga oid sonni bir necha birlik orttirish (kamaytirish)ga oid, ayirmali taqqoslashga oid, noma'lum qo'shiluvchini, noma'lum ayriluvchini, noma'lum kamayuvchini topishga oid sodda masalalarni yechish.

Sonni yig'indiga qo'shish va yig'indini songa qo'shishga oid, sonni orttirish (kamaytirish)ga va yig'indini topishga oid, yig'indini va qoldiqni topishga oid, ayirmani va yig'indini (arifmetik amallar yordamida va ifoda tuzish bilan) topishga oid tarkibli masalalarni yechish.

Vaqt (bir soat ichida) topishga (hisoblashga) oid sodda masalalar yechish.

0, 1, 10 sonlari ishtirokida ko'paytirish va bo'lish.

Jadval ichida ko'paytirish va bo'lish.

Berilgan sondan bir necha marta katta yoki kichik sonni topish; sonlarni bo'lish yordamida taqqoslash.

Sonlarni ayirmali va karrali taqqoslashga doir, sonlarni bir necha birlik va bir necha marta orttirish (kamaytirish)ga oid, baho, miqdor va qancha turishini topishga doir, bitta narsaning massasini, narsalar sonini hamda narsaning massasini topishga doir sodda masalalar. Birlikka keltirishga oid tarkibli masalalar.

Amallardan biri ko'paytirish yoki bo'lish amali bo'lgan ikki amalli tarkibli masalalar.

Tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

Son va hisoblashlar

matematikani o'rganish natijasida o'quvchi quyidagilarni:

Bilishi kerak:

– atamalar: qo‘shiluvchi, yig‘indi, kamayuvchi, ayriluvchi, ayirma; ifoda, ifodaning qiymati; ko‘paytirish, ko‘paytuvchi, ko‘paytma; bo‘lish, bo‘linuvchi, bo‘linma; ... marta kam, ... marta ortiq;

– ishora (belgi) va belgilashlar: $\cdot$ (ko‘paytirish belgisi), $:$ (bo‘lish belgisi), $\times$ (iks) ni;

– bir xonali sonlarni qo‘shish jadvali va ayirishning shunga mos hollari (avtomatizm darajasiga yetkazilgan ko‘nikmalar)ni;

– ko‘paytirish jadvali va bo‘lishning shunga mos hollarini;

– 2–3 amalli ifodalarda, chunonchi, qavsli ifodalarda amallarni bajarish tartibi.

Uddalay olishi kerak:

– 100 ichida sonlarni og‘zaki qo‘shish va ayirishni o‘rganilgan usullar asosida bajarishni;

– 100 gacha bo‘lgan sonlarni qo‘shish va ayirishni ustuncha shaklida yozish bilan hisoblay olishni;

– ko‘paytirishning asosiy xossasini ifodalash va uni hisoblashlarda qo‘llay olishni;

– bir o‘zgaruvchili ifodaning qiymatini shu o‘zgaruvchining berilgan qiymatlarida hisoblab topishni; sodda masalalarni tanlash va amallar komponentlari orasidagi bog‘lanishlar asosida yechishni;

– o‘rganilgan xildagi 1–2 amalli matnli masalalarni yechishni.

Bilishi kerak:– atamalar: to‘g‘ri burchak; to‘g‘ri to‘rtburchak; aylana, aylana markazi, aylana radiusi.

– belgilashni: mm (millimetr), kvadrat santimetr (kv. sm).

Uddalay olishi kerak:

– sirkuldan foydalanib, aylana va doira chizishni;

– ko‘pburchak perimetrini topishni.

3-sinf uchun matematikadan asosiy ta‘lim dasturi mazmunining me‘yorlari

Son va hisoblashlar

1000 ichida natural sonlar haqida tasavvurlarga ega bo‘lish, sonlarning natural qatori qurilishi o‘ziga xos xususiyatlarini tushunib yetish.

Sonlarning oʻnlik yozuvi prinsipini egallash.

Rimcha raqamlash va undan foydalanish haqida tasavvurga ega boʻlish.

1000 ichida sonlarni qoʻshish va ayirishning (yozma va ogʻzaki) barcha hollari bilan bogʻliq usullarni egallash.

1000 ichida sonlarni jadvaldan tashqari koʻpaytirish va boʻlish usullarini egallash.

Nollar bilan tugaydigan sonlarni bir xonali sonlarga, yaxlit oʻnliklarga va yaxlit yuzliklarga koʻpaytirish va boʻlish usullarini egallash.

Sonning qoldiqli boʻlishni bajarishni oʻrganish.

Uch xonali sonni bir xonali songa koʻpaytirish va boʻlishning yozma usullarini egallash.

2–3 amalni oʻz ichiga olgan (qavsli va qavssiz) ifodalarda amallarning bajarilish tartibi haqida tasavvurlarga ega boʻlish.

$x + 123 = 140$, $x - 436 = 152$, $x \cdot 4 = 140$, $810 - x = 135$ koʻrinishdagi tenglamalarni (tanlash usuli va berilgan hamda izlanayotgan son orasidagi oʻzaro bogʻlanish asosida) toʻgʻri va tez yechishga oʻrganish.

1–2 amalli matnli masalalarni yechish bilan bogʻliq tajribalar orttirish.

Massa, oʻlchov birliklari: tonna, sentner, kilogramm, gramm haqida, ular orasidagi moslik haqida tasavvurga ega boʻlish.

Vaqt oʻlchovi birliklari: soat, minut, sutka, yil, oy, hafta, sekund, asr haqida va ular orasidagi moslik haqida tasavvurlarga ega boʻlish.

Tayyorgarlik darajasiga qoʻyladigan talablar

Son va hisoblashlar

Matematikani oʻrganish natijasida oʻquvchi quyidagilarni:

Bilishi kerak:

– 0dan 1000gacha boʻlgan sonlar ketma-ketligini, bu sonlar qatorining tuzilishidagi oʻziga xos xususiyatlarni tushunishni;

– kattalik (uzunlik, massa, vaqt) oʻlchovi birliklari jadvalini bilish va bu bilimlarni amalda va masalalar yechishda qoʻllashni;

– narxi, miqdori, qiymati, me'yori, umumiy massasi kabi miqdorlar orasidagi o'zaro munosabatni bilish va bu bilimlarni matnli masalalarni yechishda qo'llashni.

Uddalay olishlari kerak:

- 1000 ichida sonlarni o'qish, yozish va taqqoslashni;
- 100 ichida va 1000 ichida amallar bajarishga keltiriladigan hollarda to'rt arifmetik amalni to'g'ri og'zaki bajarishni; hisoblashlarning to'g'riligini tekshirishni;
- 1000 ichida sonlarni yozma qo'shish va ayirishni; hisoblashlarning to'g'riligini tekshirishni;
- 2–3 amalli (qavsli va qavssiz) ifodalarda amallarni bajarish tartib-qoidalarini qo'llashni;
- 1–2 amalli (amallar bo'yicha, reja bo'yicha, ifoda tuzish bilan) masalalar yechishni.

Bilishi kerak:

- uzunlik o'lchovi birliklari orasidagi munosabatlarni;
- geometrik shakllarning ko'rinishlarini o'zgartirish usullarini.

Uddalay olishi kerak:

- o'rganilgan geometrik shakllarni nafaqat alohida, balki boshqa shakllar bilan turli uyg'unlikda namoyon bo'luvchi atrof-muhitdagi buyumlar, modellar, rasmlar, chizmalardan qiynalmay topa olish;
- chizg'ich yordamida kesma uzunligini (to'g'ri to'rtburchak tomonlari uzunligining yig'indisini) o'lchash va berilgan uzunlikdagi kesmani chizishni.

4-sinf uchun matematikadan asosiy ta'lim dasturi mazmunining me'yorlari

Son va hisoblashlar

Dastur matyerialini o'rganish 4-sinf o'quvchisiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Million ichida sonlar bilan tanishish.

Birliklar va mingliklar sinflari xonalari hamda ular orasidagi munosabatlar haqida tasavvurlarga ega bo'lish.

Pozitsion va nopozitsion sanoq sistyemalari haqida tasavvurga ega bo'lish.

Million ichida to'rt arifmetik amalni (istalgan ko'p xonali sonlarni qo'shish va ayirish; istalgan ko'p xonali sonlarni ikki va uch xonali sonlarga ko'paytirish va bo'lish) to'g'ri va tyez bajarishga o'rganish.

Qoldiqli bo'lish malakalarini mustahkamlash.

1–3 amalni o'z ichiga olgan unchalik murakkab bo'lmagan sonli ifodalarning qiymatlarini to'g'ri hisoblashga o'rganish.

Unchalik murakkab bo'lmagan tenglamalarni tyez yechishga o'rganish.

Turli xarakterdagi masalalarni yechishda foydalaniladigan kattaliklar orasidagi o'zaro bog'lanishlarni mustahkam egallash.

1–3 amalli matnli masalalarni yechish tajribasiga ega bo'lish.

tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

Son va hisoblashlar

matematikani o'rganish natijasida o'quvchi quyidagilarni:

Bilishi kerak:

– 1 000 000 ichida sonlarni o'qish, sonni xona qo'shiluvchilarining yig'indisi ko'rinishidagi yozuvni tushunishni;

– sanoq tyexnikasini egallash (to'g'ri va teskari tartibda sanash, juftliklar va o'nliklar bilan sanash, sonidan oldin va keyin kyeluvchi sonni aytish)ni;

– natural sonlarni o'zaro taqqoslash: «>», «<» va «=» belgilarini to'g'ri qo'llashni;

– qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishning jadvali hollari natijalarini yodda olib qolish, murakkab bo'lmagan hollarda 100 ichida og'zaki hisoblashlarni bajarishni.

Uddalay olishi kerak:

– 1 000 000 ichida sonlarni o'qish va yozishni;

– sonlarni yozma qo'shish, uch xonali va to'rt xonali sonlarni ayirish, bir xonali va ikki xonali songa ko'paytirish va bo'lish, qo'shish va ayirish, ko'paytirish va bo'lish orasidagi aloqalarni tushunish asosida hisoblashlarning to'g'riligini tekshirishni;

– ko'pxonali sonlarni yozma qo'shish va ayirish hamda hisoblash natijalarining to'g'riligini tekshirish;

– ko‘pxonali sonlarni bir xonali va ikki xonali sonlarga yozma ko‘paytirish va bo‘lish hamda hisoblash natijalarining to‘g‘riligini tekshirishni;

– 2–3 amalli sonli (shu jumladan, qavsli) ifodaning qiymatini topish;

– «... ta ortiq», «... ta kam», «... marta ortiq», «... marta kam», «hammasi», «qoldi», «teng» munosabatlarining ma’nosini tushunish va ularni arifmetik amallar bilan to‘g‘ri bog‘lay olish, shu tushunchalarga tayangan holda masalalarni yecha olishni;

– kattaliklar (mahsulot narxi, miqdori va qiymati, to‘g‘ri chiziqli harakatda yo‘l, tezlik va vaqt) orasidagi bog‘lanishlarni qo‘llab amaliy mazmundagi masalalarni yechishni.

Bilishi kerak:

– atrof-muhitdagi geometrik shakllarni tanish va topa olishni;– uzunlik o‘lchov birliklari (mm, sm, dm, m, km)ni, ular orasidagi asosiy nisbatlarni bilish, zarur hollarda ulardan qaysi birini qo‘llash maqsadga muvofiqligini tushunish, yuz o‘lchov birliklari (kv. sm, kv. dm, kv. m) ni.

Uddalay olishi kerak:

– kesma uzunligini o‘lchash, berilgan uzunlikdagi kesmani yasash, kesma uzunligini ko‘z bilan chamalab o‘lchashni;

– chizg‘ich, go‘niya, sirkuldan foydalanib, to‘g‘ri to‘rtburchak, kvadrat, uchburchak va aylanalar yasashni;

– ko‘pburchak perimetrini, to‘g‘ri to‘rtburchak yuzini va kvadrat birliklaridan tuzilgan shakllarning yuzini hisoblashni;

– masalalar yechishda o‘rnatilgan geometrik jismlarning hajmlarini hisoblashni;

– bir xil maxrajli oddiy kasrlarni qo‘shish va ayira olish hamda bu malakalarni masalalar yechishda qo‘llay olishni.

Kundalik hayoti va amaliy faoliyatida egallagan bilim va malakalarini quyidagi hollarda qo‘llay olishni

Bilishi kerak:

– atrof-muhitda mo‘ljal ola bilish (marshrutni rejalashtirish, harakat yo‘lini tanlay olish va h.k.)ni;

- taqqoslash va turli alomatlarini: uzunligi, yuzi, massasi, sigʻimiga koʻra tartibga solishni;
- soatga qarab vaqtni aniqlash (soat va minutlarda)ni;
- maishiy-hayotiy vaziyatlar (savdo-sotiq, oʻlchash, tortish va h.k.) bilan bogʻliq hisoblashlarga oid masalalarni yechish;
- oʻlchamlarni koʻzda «chamalab» baholash;
- mustaqil konstruktorlik faoliyati (turli-tuman geometrik shakllarni qoʻllanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda).

1.4. Darsliklarga nomerlash metodikasi boʻyicha qoʻyiladigan talablar

I. 1 - sinfda matematika darsligi bilan ishlashning asosiy oʻquv-tarbiyaviy vazifalari

1 - sinf matematika dasturi bundan keyingi taʼlim asoslanadigan muhim bilimlar, malakalar va koʻnikmalarni tarkib toptirishni nazarda tutadi. 1-sinfda son, sanoq, qoʻshish va ayirish amallari haqidagi tasavvurlar tarkib topishi, sonlar qatori ongʻli oʻzlashtirilishi kerak (bolalar qatordagi har bir son qanday hosil boʻlishini oʻzlashtirishlari, sonlarni taqqoslashni oʻrganib olishlari kerak). qoʻshish va ayirish usullarini ongʻli oʻzlashtirishga alohida eʼtibor berilishi kerak.

Nihoyat, 1-sinfda oʻqitishning natijasi 10 ichida sonlarni sanashni, qoʻshish jadvalini, shu sonlar tarkibining tegishli hollarini va ayirishni ongʻli va puxta oʻzlashtirishni hamda bu oʻzlashtirishni avtomatizmga yetkazishdan iborat boʻlishi kerak. Bolalar $3 + 6 = 9$ dan, 9 bu 6 va 3 ekanini, $9 - 6 = 3$, chunki 9 bu 3 va 6 ekanini ogʻzaki bilishlari kerak.

Bundan tashqari, bolalar 20 ichida predmetlarni sanay oladigan, 0 dan 20 gacha boʻlgan sonlarni oʻqiy oladigan va yoza oladigan, ularning oʻnliklar va birliklardan iborat tarkiblarini bilishlari (12- bu 1 oʻnlik va 2 birlikdan iborat ekanini, 1 oʻnlik va 7 birlik bu 17 ekanini bilishlari) kerak, 20 ichida qoʻshish va ayirishga doir misollarni ($10 + 6$, $13 - 3$, $16 - 10$) yecha oladigan boʻlishlari kerak.

Bundan tashqari, bolalar yigʻindini, qoldiqni topishga doir, berilgan sonni bir necha birlik orttirish yoki kamaytirishga doir masalalarni yechishni oʻrganib olishlari kerak. Butun yil davomida bolalarning fazoviy tasavvurlarini aniqlash va kengaytirishga doir,

ularning "ortiq", "kam", "o'shancha" munosabatlarini tushunishlarini aniqlash va kengaytirishga doir, predmetlar uzunliklarini (oldin istalgan uzunlikdagi o'lchov poloskasi, so'ngra uzunligi 1 santimetr bo'lgan poloska yordamida) o'lchash bilan bog'liq bo'lgan, kesma uzunligini (butun santimetrlarda) chizg'ich bilan o'lchash va berilgan uzunlikdagi kesmani chizish bilan bog'liq bo'lgan amaliy malakalarni shakllantirish bo'yicha sistematik ish olib boriladi. Uqituvchi har doim shuni esda tutishi kerakki, bolalarning hayotiy tajribalariga doimo asoslanilgandagina, sistemali ravishda uni boyitilgandagina o'quv vazifalari hal qilinishi mumkin, shu sababli bolalarda nutq, xotira va tafakkurning rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qilish kerak. Bolalarning umumiy rivojlanishi uchun har bir darsda, imkoniyatga qarab, predmetlar gruppasini, ayrim predmetlarni kuzatish, ularning klassifikasiyasi, bolalar xotiralarining mashqi bilan bog'liq bo'lgan ish o'tkazilishi kerak. Bunda bolalarga eslab qolishni osonlashtiruvchi usullarni o'rgatish muhimdir. Masalan, qo'shish jadvalini o'rganishda bir xil sonlarni qo'shish ($4 + 4$, $5 + 5$ va hokazo), natijalarini eslab qolish $4 + 5$, $5 + 6$ va boshqa qo'shish hollarini eslab qolishga yordam beradi.

Shu vaqtning o'zida dasturning ko'pgina masalalarini o'zlashtirish bolaning u yoki bu amalni ongli bajarishini talab qiladi. Masalan, bir gruppadagi predmetlarni bolalar oldin bir tartibda, keyin boshqa tartibda sanab, sanoq natijasi sanashning qanday tartibda bajarilishiga bog'qliq emas ekan, degan xulosaga keladilar. Shuningdek, amaliy kuzatishlar nati-jasida bolalar predmetning tartib nomeri har doim sanashning qanday tartibda bajarilishiga bog'liq ekaniga ishonch hosil qiladilar va hokazo.

Ko'pgina kuzatishlar natijasida to'plangan hisoblashlarni osonlashtirishga yordam beradigan materialdan o'qituvchi o'quvchilarning kuchlari yetadigan umumlashtirishlar qilishda foydalanishi kerak. Masalan, bolalar $4 + 5$, $5 + 4$ ko'rinishdagi misollar juftlarini kuzatib va taqqoslab, yig'indi sonlarning qo'shilish tartibiga bog'liq emas, degan xulosa chiqaradilar va yig'indining bu xossasidan kichik songa katta sonni qo'shish hollarida foydalanadilar ($2 + 7$, $1+9$ va hokazo).

Olti-yetti yoshli bolalar bilan ishlovchi o'qituvchi har doim o'z oldida turgan umumiy tarbiyaviy maqsadlarni unutmasligi kerak. Bolalarning bilish qobiliyatlarini (birinchi navbatda ularning tafakkur va nutqini) rivojlantirish muhim masala bo'lib, bolalar bilan bajariladigan o'quv va tarbiya ishlarining mazmuni ham, metodlari ham bu masalaga bo'ysundirilgan bo'lsagina muvaffaqiyatli hal qilinadi. Matematika

mashg'ulotlari uchun bunday topshiriqlarni tanlash katta ahamiyatga ega. Bu mashg'ulotlar bolalardan mustaqil kuzatishlar o'tkazishni, qarayotgan hodisalarni, predmetlarni, o'z harakatlarini va shu singarilarni taqqoslash, tavsiflashlarni talab qiladi. Bolalarning nutqi o'qituvchining savollariga javob berishdangina iborat bo'lmasdan, unda kerakli so'z va ifodalarni o'z ichiga olgan hikoyani ravon tasvirlashi muhimdir (masalan, predmetlarning xossalarini o'rganishda, xususan, ularning ranglarini farq qilishga o'rgatishda, rangning nomini, atrof tevarakdagi predmetlarning ranglarini aytishdan tashqari o'quvchilarga o'zlari biladigan mevalar va sabzavotlar haqida gapirib berishni, bunda ularning ranglarini aytishni taklif qilish mumkin va hokazo). Matematika darslarida beriladigan topshiriq va mashqlarning mazmunida bolalarga tanish kitob, ertak va multfilmlarning qahramonlari qatnashsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Butun mashg'ulotni ona tili va boshqa predmetlar mashg'ulotlarida olingan bilimlar, malakalarni hisobga olgan va ularga asoslangan holda olib borish kerak.

Muhim tarbiyaviy masalalardan biri bolalarda jamoada yashash va o'qish uchun zarur elementar bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni tarkib toptirishdan iboratdir. Bu jihatdan har xil tashkil qilinadigan o'quv va o'yin faoliyatlari orqali to'planadigan tajriba katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, ta'lim, tarbiya va rivojlantirish vazifalari bir butun kompleks tarzda hal qilinadi. Bunda har xil ta'lim metodlaridan va darsda ish tashkil qilishning mos formalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega.

II. Nomerlashni o'rganishga doir mashg'ulotlarni tashkil qilish

1 sinf o'quvchilari bilan ishlashda asosiy talab darsda bolalarning faoliyatlarini, eng avvalo, aqliy faoliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishdan iborat. Darsda bunday bolalarga yetti yoshli bolalarga qaraganda ko'proq erkinlik berishga yo'l qo'yiladi. Undan tashqari bolalarning darsga bo'lgan qiziqishlarini orttirish uchun darsdagi ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda har bir o'quvchi aktiv ishtirok etsin, darsda ko'proq o'quvchi chaqirilsin. Masalan, o'qituvchi sanoqni o'rgatishda Qodir, Sattor, Anvar, Oydin, Nodirani doskaga chaqiradi va o'tirgan bolalardan so'raydi: "Men nechta o'quvchini chaqirdim? tekshiramiz: Qodir, mening oldimga kel.. Sen birinchi bo'lasan, undan keyin Sattor turadi. Sen sanoqda nechanchi bo'lasan?... hammamiz burilamiz. Kim birinchi bo'lib qoldi? Kim ikkinchi? va hokazo. Oxirgisi beshinchi bo'ldi, hammasi qancha bo'ldi? Beshinchi Qodir, O'tkir. Qancha qoldiq? Endi kim baland ekanini

qaraymiz: Valimi yoki Sattormi, Ilhommi yoki Vohidmi, Nigorami yoki Lolami" va hokazo.

Darsda matematika mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otuvchi musobaqa elementlarini o'z ichiga olgan didaktik o'yinlarga ko'proq o'rin berish kerak. Bular boshlang'ich maktabda matematika o'qitish tajribasidan ma'lum bo'lgan didaktik o'yinlar ("Jim", "Zinapoya", "Estafeta") bo'lishi mumkin, bu o'yinlarni o'ynashda sinf kollektivi odatda ikkita komandaga bo'linadi yoki ikki o'quvchi tomonidan o'ynaladi. Bunday o'yinlarni shunday tashkil qilish muhimki, bolalar ba'zan "o'qituvchi" rolida bo'lib qolishsin, ya'ni to'g'ri bajarilganlikni tekshiradigan bo'lishsin yoki o'zlari topshiriqlar berishsin (bolalar o'yin paytida rollari bilan almashinib tursin).

O'yinlarda "yutib chiqish" usulidan foydalanish muhimdir. Masalan, "Javobida 8 chiqadigan ikki sonni qo'shishga doir misol tuzing" ifodasi o'rniga bolalar topshiriqni qiziqish bilan qabul qilishlari uchun "D + P yozuvda qaysi kartochkalar aylantirib qo'yilganini toping" deyish mumkin. O'quvchilarni ko'proq aktivlashtirishga, butun e'tiborni safarbar qilishga ko'pchilik o'qituvchilar foydalanadigan usul o'quvchilar sevadigan ertak qahramonlarini "jalb qilish" usuli katta ahamiyatga egadir. Masalan: "Buratino misollar yechayotgan edi, u bitta misolni yecha olmadi... U sizlardan yordam so'rab keldi. Unga yordam bering... Bilmasvoy har doimgidek hamma narsani chalkashtirib yubordi. U uchga ikkini qo'shib, 4 chiqardi. Uning xatosini tuzating" va shu singarilar.

Bolalar o'z mohiyatiga ko'ra qiziqarli bo'lgan maxsus tanlangan mantiqiy mashqlarni katta qiziqish bilan tahlil qila oladilar. Darslik (kursning har xil temalariga bag'ishlangan) sahifalarida ham shu mashqlarga bag'ishlangan maxsus ikki tutash ichki betlarda (razvorotlarda) bu xildagi bir qator mashqlar berilgan.

Mantiqiy mashqlar, o'yinlar, didaktik material bilan amaliy ishlar, bosma asosli daftar bilan amaliy ishlar darsda nisbatan katta o'rin olishi kerak, ammo bular bilan bir qatorda o'qitishning oddiy metodlaridan ham foydalaniladi, bu metodlar ham qaralayotgan holda ma'lum xususiyatga ega. Masalan, 6 yoshliklar bilan ishlashda uzoq tushuntirishlar bo'lmasligi kerak. Tushuntirish ko'pincha tayyorlovchi suhbat formasida olib boriladi.

Kitob bilan ishlash, odatda, o'qituvchi rahbarligida o'tadi, ammo yil oxirigacha bolalarni kitob bo'yicha ba'zi topshiriqlarni mustaqil bajarishga o'rgatish kerak (misollarni yechish, uncha qiyin bo'lmagan kichik tekstli masalalarni yechish).

Olti yoshli bolalar bilan mashg'ulotlarni tashkil qilishning muhim talablaridan biri shunday sharoit yaratishdan iboratki, bu sharoitda bolalar faoliyatlarining turi o'z vaqtida almashtirilishi va bajarilayotgan topshiriqlarning xilma-xil bo'lishi ta'minlanishi kerak (kuzatishlar, didaktik materiallar bilan amaliy ishlar, rasm solish, suhbatda qatnashish, daftarda mustaqil ish bajarish, kitob bilan ishlash, sinfning og'zaki frontal ishida qatnashish, darsning borishida o'yinli dam olish va shu singarilar).

Yangi materialni kiritishda darsni shunday tashkil qilish kerakki, unda ish doska oldida o'qituvchi yoki chaqirilgan o'quvchi tomonidan bajariladigan har xil dnamoyishlardan, har xil predmetlar bilan amaliy ishlar bajarishdan boshlanadi (masalan, bolalar navbat bilan doska oldiga chiqishadi, tokchada turgan o'yinchoqlardan olib juftlar hosil qilishadi), shundan keyin partada individual sanoq materiallari bilan ish bajariladi, bunda o'yinning borishida o'qituvchi yordamga muhtoj o'quvchilarga yordam beradi. Bunday ish odatda kollektiv ravishda natijani tekshirish bilan tugaydi (masalan, kerak bo'lib qolganda topshiriqni bajarish usulini tushuntirish bilan).

Shundan keyin kitob bilan ishlash o'qituvchi rahbarligida boshlanadi, undan keyin esa boshqa sanoq materiallari bilan yana amaliy ishlar bajarishga o'tiladi (masalan, masalalar tuzish uchun ko'rsatmali rasmlardan foydalaniladi). Bundan keyin esa o'qituvchi doskada tushuntirgani bo'yicha daftarda mustaqil ish bajariladi.

Darsning borishida, o'qituvchining xohishiga qarab, bolalarda charchash alomatlarini sezishi bilanoq, jismoniy tarbiya o'tkazish foydalidir, darsga bolalarning kayfiyatini ko'taruvchi, masalan, hazil masalalar, qiziqarli, yorqin, g'alati rasmlar, jadvallar va shu singari qiziqarli elementlarni kiritish foydalidir. Shu xildagi ba'zi materiallar darslik sahifalarida berilgan.

Ta'limning o'quv, tarbiyaviy rivojlantirish vazifalarini hal qilishga mashg'ulotlarning butun sistemasi bilan, ya'ni kuzatishlar, har xil didaktik materiallardan foydalanib amaliy ishlar o'tkazish, darslik, bosma asosli daftar bilan ishlash va shu singarilar bilan erishiladi. Bunda asosiy qo'llanma darslik hisoblanadi. Darslik bilan ishlash darsda ozgina vaqtni olsada, ammo aynan shu kurs sistemasining izchilligini

aniqlaydi, programma talablarini ochadi va aniqlashtiradi, kursning har bir masalasi qaysi darajada qaralayotganini ko'rsatadi, ular qanday ketma-ketlikda o'rganilishini ko'rsatadi.

Darslikni yaxshi bilish o'qituvchiga kursni rivojlantirish mantiqini (mazmunni, ishni planlashtirishni, ba'zan esa uni tashkil qilishni, shu bosqichda foydalanilishi maqsadga muvofiq bo'lgan ko'rsatmalilik turlarini) tasavvur qila olishga yordam beradi.

Shu sababli darslik xususiyatlarini chuqur bilib olish kerak.

III. Darslikning asosiy xususiyatlari

1. Darslik darslar bo'yicha tuzilgan (har bir sahifa bir dars). Har bir sahifada yangi darsda qaralishi kerak bo'lgan yangi materialgina berilgan bo'lmay, balki ilgari o'tilganlarga asoslangan material ham berilgandir. Bunda darslik avtorlari o'z oldilariga har bir yangi masalani qarash uchun oldindan tayyorgarlik ko'rishni va sistemali ravishda ilgari berilgan biletlni rivojlantirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashni, shakllantirilayotgan bilim va malakalarni takomillashtirish hamda puxtalashni maqsad qilib qo'yishgan. Lekin, darslikda har qaysi darsga mo'ljallangan umumiy o'quv vazifasi aniqlanmaydi, chunki darsda asosiy o'rinninamoyishlar, kuzatishlar, didaktik materiallar bilan birga bosma asosli daftarlarda o'tkaziladigan amaliy ishlar egallashi kerak. Bu ishlarning mazmuni darslikda aytiladi, ammo ularning soni va turini har bir darsga tayyorgarlik ko'rishda bolalarning tayyorgarliklari, sinfnig ish sur'ati va shu singarilarni hisobga olgan holda o'qituvchi aniqlaydi.

Bunda "har bir sahifa bir dars" degan umumiy qoidadan chetga chiqishlar ham bo'ladi. Masalan, qo'sh sahifalar (kitob "razvorotlari") deyarli hamma vaqt rasm syujetlari bilan birlashtirilgan bo'ladi (masalan, "maktab", "o'yin xonasi", "o'yin maydonchasi", "o'y", "ko'cha", "bor" va shu singarilar), ko'pincha bu sahifalardagi rasmlar berilgan o'quv material temasi bilan ham birlashtirilgan bo'ladi. Uqituvchi darslik tuzilishining bu xususiyatidan foydalanar ekan, sinfda u yoki bu materialni o'rganishga ikkita dars ajratish zarur emasligini, o'quvchilar bu masala bo'yicha yetarlicha oriyentir ola bilishlarini ko'ra olsa, ikki sahifa materialidan bir darsda foydalanishi mumkin. Yoki agar o'qituvchi kitobning biror-bir bo'limi bo'yicha (masalan, 6-7, 8-9, 16-17 betlar va hokazo) 2 ta dars o'tganidan keyin qaralayotgan materialda yana to'xtalish zaruratini ko'rsa, u osongina darslikning shu sahifalari materiallaridan foydalanib, yana 1 ta mustahkamlash darsini o'tkazishi mumkin. Uzaro

bog'liq masalalar, savollar, topshiriqlarning darslik razvorotlariga joylashtirilishi ularni taqqoslashni osonlashtiradi.

2. Kitobning yangi material bilan tanishtirish va mustahkamlash sistemasini aniqlovchi razvorotlaridan tashqari, darslikka o'z matematik mazmuniga ko'ra qiziqarli yoki musobaqa, ba'zida esa didaktik o'yinlar o'tkazish imkonini beruvchi asosiy materialni o'z ichiga olgan 18 ta (36 sahifa) bo'lim kiritilgan.

Kitobga kiritilgan qismlarning asosiy vazifasi o'tilganlarni mustahkamlashdan iborat. Ulardan har xil foydalanish mumkin: ba'zan mavzu (qism mavzu) bo'yicha mustahkamlash darslarida foydalanadi, ba'zan esa bu qismlarning ayrim mashqlari o'tilayotgan istalgan darsga kiritilishi mumkin. Qaralayotgan razvorotlarning ba'zilarida berilgan qiziqarli mashqlar va o'yinlarning mazmunidan o'qituvchi namuna sifatida foydalanishi mumkin, ulardan foydalanib, o'qituvchi yil davomidagi darslarga mo'ljallangan shunday topshiriqlar va mashqlarni osongina tuzishi mumkin. Kitobning tarbiyalovchi ahamiyatini kuchaytiruvchi bu sahifalarining muhim xususiyati shundaki, ularning ko'pchiligi umumxalq bayramlari – 21 mart – Navro'z, 1 yanvar - Yangi yil, 8 mart – xalqaro xotin-qizlar kuni, 1 sentyabr – mustaqillik kuni va shu singarilarga bag'ishlangan. Buni unutmash kerak va tegishli materialni o'z vaqtida, tegishli sanalarga bog'lab o'rganish kerak.

Qarab chiqilgan qismlarni kiritish o'quvchilar yosh xususiyatlariga mos kelibgina qolmay, balki ular bilan ishlashni har xillashtirish bilan birga matematika mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otadi. Shu bilan birga har qanday holda ham bu qismlarga ermak deb qaramaslik kerak, ular darslikning boshqa sahifalari kabi matematik mazmun bilan boyitilgan, o'quv vazifalariga moslashtirilgan.

Darslikning qaralayotgan qismlarida berilgan topshiriqlar, savollar, mantiqiy xarakterdagi mashqlar materialidan bolalar bilan o'tkaziladigan darsdan tashqari ishlarda ham, ertaliklar tayyorlashda va hokazolarda ham foydalanish mumkin.

3. Kitobda butun o'quv materialini berish xususiyatlari olti yoshli bolalarning yosh xususiyatlari va ularning o'qitishga tayyorgarlik darajalarini hisobga olish zarurati kitobda butun o'quv materialini berish bilan tushuntiriladi. Uning sahifalariga tekstli material ancha keyin kiritilgan, shu sababli kitobning deyarli butun mazmuni unda har xil rasmlar va matematik yozuvlar yordamida beriladi, bu yozuvlar bolalarning sonlar va

amallar, tegishli raqamlar va ishoralar (belgilar) bilan tanishtirilishiga qarab sekin-asta kiritiladi va qiyinlashtirib boriladi.

Darslikda har xil rasmlar temalari berilgan: o'yin xonasi, uy, maktab, oila, ko'cha, ko'cha harakati qoidalar va shu singarilar. Mazmunli rasmlar bo'yicha qisqa suhbatlar o'tkazish kerak, bunda matematikaga doir savollar xarakterini o'ylab ko'rish maqsadga muvofiqdir. Bunday savollar darsni jonlantiradi, bolalarga o'z fikrlarini aytish, nimaning rasmi ishlanganini ko'rish imkonini beradi.

Ba'zan amaliy ish tashkil qilish uchun didaktik material tayyorlash zarur bo'ladi. Agar darslik rasmida biror ko'rsatma-qo'llanma (masalan, raqamli kartochkalar, chizg'ich va hokazo) tasvirlangan bo'lsa, darsga tayyorlanishda o'qituvchi shunday qo'llanmalardan foydalanishni nazarda tutishi kerak; agar katakli qog'ozda yozuv yoki katakli qog'ozda rasm namunalari berilgan bo'lsa, daftarda shunga mos ish bajarishni o'ylab ko'rish zarur. Qo'sh rasmlar predmetlarni, rasmlarni taqqoslashga doir ishlar o'tkazish kerakligini bildiradi.

Har doim rasmni shu rasm bilan birga keladigan matematik yozuvga mos keltirish kerak, chunki bu yozuv rasmning vazifasini ochib ko'rsatadi. Buni darslikning bir sahifasi namunasida ko'rsatamiz. Bolalarni 7 soni 7 raqami bilan tanishtirishga bag'ishlangan 40- betda yuqoridagi mazmunli rasm ostida ikkita $6 + 1 = 7$, $7 - 1 = 6$ yozuvi turibdi. Bu rasm oldingi songa 1 ni qo'shish bilan 7 sonini hosil qilishni (oldingi son 6 ni 7 dan 1 ni ayirish bilan hosil qilishni) qarashga mo'ljallanganligini bildiradi. Sonlar hosil bo'lishini syujetli rasmlar bilan tushuntirishdan maqsad matematikaning hayot bilan bog'liqligini, matematik situatsiyalarning turmushda sodir bo'lishini ko'rsatishdan iboratdir. Bu holda rasm bo'yicha masala tuzish talab qilinmaydi.

Darslikda o'lchash bilan bog'liq bo'lgan amaliy ish tashkil qilishni talab qiladigan rasmlar ham bor (masalan, 41 va boshqa betlarga qarang). Bolaning o'zi o'lchash poloskalari, keyinroq esa chizg'ich bilan ishlamasa, unga o'lchash g'oyasi tushunarli bo'lmaydi.

Darslik ishda ma'lum metodik bosqichlarni belgilaydi. Masalan, darslik masalalar ustida ishlashda sekin-asta to'la ko'rsatmalilikdan (bolalar hamma predmetlarni sanay oladigan bo'lganda) noto'la (masalada berilganlardan biri son shaklida, boshqasi esa rasm shaklida berilganda, ikkala berilganlar son shaklida ifodalanganda) ko'rsatmalilikka o'tishni planlashtiradi. Bu masalalar yechishda predmetlarni qayta sanashdan qo'shib

sanashga o'tishni bildiradi (bola 3 raqami yozilgan bir quti konfetni va 2 ta alohida konfetni ko'radi, u 3 deydi va hisobni davom ettiradi "to'rt", "besh", "hammasi 5 ta konfet").

Qayta sanashdan qo'shib sanashga o'tish masalalar yechishdagina emas, shu bilan birga misollar yechishda ham sodir bo'ladi. Bolalar qo'shish va ayirishni sonlar qatoriga asoslanib bajarishadi.

Oldin maxsus o'rganish namunasi bo'lgan raqamlar va belgilar endi sekin-asta ko'rsatma materiali bo'lib qoladi. Yozuv amal bajarish uchun tayanch bo'lib qoladi. Masalan, qo'shishda sonlarning o'rinlarini almashtirish usuli o'rganilgandan keyin darslikda ushbu ko'rinishdagi yozuv taklif qilinadi:

$$4 + 6 = 10, \quad 6 + 4 = 10$$

Ishlanayotgan misolning tagiga chiziq chizib qo'yilgan, uning ostida esa "yordamchi" misol berilgan bo'lib, bolalar bu misoldan foydalanib va o'rganilgan usulni qo'llanib, birinchi misolni yechishlari mumkin.

4. Boshlang'ich maktab uchun mo'ljallangan hamma matematika darsliklari kabi 1-sinfiga mo'ljallangan darslik kursini maqsadga muvofiq tanlangan masalalar va savollar ochib beradi. O'qituvchi mashqlar sistemasining hammasini butunicha tasavvur qila olishi, ularning kursdagi va har bir darsdagi o'rnini ko'ra olishi muhimdir. Bu mashqlar ichida hisoblash ko'nikmalarini puxtalashga yo'naltirilgan mashqlar katta o'rin oladi.

Shu bilan birga hisoblashga oid mashqlarni tanlash taqqoslashlar, kuzatishlar o'tkazish, umumlashtirishlar qilish imkonini ochadi. Masalan, 46 - betda misollar berilgan:

$$9 + 1 \quad 8 - 1 \quad 3 + 2 \quad 10 - 1 \quad 8 + 1 \quad 5 - 3$$

Ulardan ba'zilar (II ustun) sonlar qatori xossalarini qarashga material beradi, boshqa ba'zilar esa qo'shish bilan ayirish orasidagi o'zaro bog'lanishlarni tushunishga tayyorlaydi. O'qituvchi darsda og'zaki ishlash uchun shunga o'xshash mashqlar tuzishi mumkin.

Darslik bolalar oladigan bilimlarni sistemaga solish va umumlashtirishni nazarda tutadi. Masalan, 2 ni qanday hosil qilish (2 - bu 1 va 1), 3 ni qanday hosil qilish (3 - bu 2 va 1) ni bolalar birinchi darsdan boshlaboq ko'rsatma materialda qaraydilar.

$a+1$, $a-1$ ko'rinishdagi qo'shish va ayirish hollarini qarashda bolalar bilimlari sistemaga solinadi va umumlashtiriladi, bunda ko'rsatmalilik formasi ularni

sistemashtirish imkonini beradi: ish oldin syujetli rasmga tayanib bajariladi, keyin esa sekin-asta abstrakt materialga (kubchalarga, doirachalarga) o'tish amalga oshiriladi, yoki bir necha dars davomida bolalar 3 sonini qo'shish (ayirish) usulini o'rganishadi, shundan keyin esa umumlashtiruvchi ish bajariladi, 3 sonini qo'shish va ayirishga doir jadval tuziladi va o'rganiladi; jadvaldagi qo'shish va ayirishga doir misollar qatorasiga yechiladi, oralatib yechiladi, ikkitalab yechiladi va hokazo.

Darslikning ko'pgina mashqlariga bir marta emas, ko'p marta murojaat qilish mumkin. Masalan, 107- betdagi qo'shish va sonlar tarkibiga oid jadvallardan tegishli hollarni (natijani topish mumkin) eslab qolish bosqichida ham, jadvalni bilganlikni tekshirish uchun ham (agar o'qituvchi chap ustun yoki yuqori satrni berkitsa: 7 - bu 4 va necha? 6 - bu 5 va necha? yoki 3 va 5, 3 va 4 nimaga teng? va hokazo) foydalaniladi.

5. Darslikda bolalarni tekstli arifmetik masalalarni yechishga o'rgatishga yo'naltirilgan tobora qiyinlashib boruvchi har xil mashqlar sistemasi katta o'rin oladi. Ammo bu "tekstli" masalalar darslikda oldin tekst bilan emas (hali bolalar o'qishni bilmaganliklari tufayli), balki rasmlar bilan ifodalangan. Uqitish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun bu rasmlarning vazifalari va ularning xususiyatlarini yaxshi tasavvur qilish muhimdir. Shu munosabat bilan eng oldin shuni ta'kidlash lozimki, har qanday holda ham birinchi vaqtlarda rasmlardan tekstini o'qituvchining o'zi aytadigan masalalarga oid rasmlar tariqasida foydalanish kerak. Bu holda rasm bolalarga masala mazmunini o'zlashtirishga yordam beradi va uni yechishda ko'rsatmali tayanch bo'ladi. Bolalarni rasmlarga qarab mustaqil masalalar tuzishga jalb qilish o'qitishning navbatdagi bosqichlarida, bunga ular yetarlicha tayyor bo'lganlaridan keyingina mumkin bo'ladi. Darslikdagi rasmlar masalalar ustida ishlashning ma'lum metodikasini aks ettiradi, bu ishning asosiy bosqichlarini belgilab beradi: to'la predmet ko'rsatmalilikdan (berilganlar predmetlarning mos gruppalari o'rinishida tasvirlangan va masala savoliga predmetlarni sanash bilan javob olinadigan bo'lganda) noto'la predmet ko'rsatmalilikka (predmetlar gruppasi ko'rinishida faqat bir ma'lumot tasvirlanganda, ikkinchisi esa son bilan berilganda, 91-betdagi rasmga va darslikning boshqa rasmlariga qarang) sekin-asta o'tiladi. Bu holda javob oddiy sanash bilan olinmaydi, balki yechishda berilgan sondan foydalanish malakasi talab qilinadi. Nihoyat, ko'rsatmalilik masala mazmunini, uning formulasini tushunishga yordam beruvchi illyustrasiya bo'lib qoladi, masalani yechish uchun esa sonlar bilan amallar bajarishga to'g'ri keladi (darslikning 111-va boshqa

betlariga qarang). Darslikdagi rasmlarning bu va boshqa xususiyatlarini bolalar ishlarini tashkil qilib va boshqarib, hisobga olish zarur.

Qo'yida darslarga oid tavsiyalarda masalalar ustida ishlash metodikasi haqida to'laroq fikr yuritiladi.

IV. Daftar bilan ishlash

Sinfda ishlashda darslik bilan bir qatorda bosma asosli daftar asosiy qo'llanma hisoblanadi. Daftarda berilgan mashqlar darslik materialini tarkiban to'ldiradi. Mazmuniga ko'ra u darslik bilan uzviy bog'langan, har bir darsning konkret vazifalariga erishishga yordam beradi va shu bilan bir vaqtda o'quvchi faoliyatiga xilma-xillik kiritadi, bunda u o'quvchiga rasm solish, chala ishlangan rasmni chizib tugatish, bo'yash, chiziqlar bilan birlashtirish, o'rash va shu singarilar imkoniyatini beradi. Bu bola qo'lini raqamlarni yozishga yaxshi tayyorgarlik bo'lib xizmat qiladi.

Shuni qayd qilamizki, 6 yoshli bolalar qo'llarining mayda mushaklari 7 yoshli bolalarnikiga qaraganda bo'shroq rivojlangan, harakat koordinasiyalari darajasi pastroq. Bu xususiyatlarni bolalarni raqamlar yozishga o'rgatish va boshqa matematik yozuvlarni bajarishga o'rgatishda hisobga olmasdan bo'lmaydi. Mana shularni hisobga olib, bosma asosli daftarlarda kataklar kattaroq qilib chizilgan, bu daftarlar kataklari odatdagi o'quvchilar daftaridagiga qaraganda 1,5 marta katta (7mm X 7mm). Daftarda raqamlarni yozishga uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rish ishi nazarda tutilgan, bolalar oldin rasmlarni bo'yab, belgilangan kontur bilan o'rab chiqishni mashq qiladilar. Shundan keyin katakli qog'ozda ishlashga tayyorgarlik boshlanadi, satrni, ustunni ajratishga yordam beruvchi mashqlar beriladi nihoyat, punktir bilan belgilash chiziqlarini, jiyaklarni, yozuv namunalarini o'rab chiqishga oid ko'p sondagi, mashqlar berilgan. Shunday tayyorgarliklardan keyingina raqamlarni mustaqil yozish kiritiladi, so'ngra esa misollar va masalalar yechimlarining yozuvlari ham kiritiladi.

Har gal daftarda navbatdagi topshiriqni bajarishdan oldin bolalar uni qanday bajarishlari kerakligini albatta ko'rsatish kerak (nimadan boshlash kerak, qaysi yo'nalishda harakat qilish lozim, u yoki bu figura yoki raqamni o'rashda qalamni uzish kerak yoki kerakmasligi va shu singarilar). Bularning hammasini doskada ko'rsatish kerak, shundan keyin o'quvchilar o'qituvchi tushuntirishlarini takrorlashadi, qo'llariga qalam (ruchka) olib, o'z daftarlarida bajarishlari kerak bo'ladigan harakat yo'nalishlarini "havoda" ko'rsatadilar, shundan keyingina mustaqil ishga kirishadilar.

Daftarning bir sahifasida asosan 3 ta darsga material berilgan, ya'ni darslikning uch sahifasi bo'yicha ishlashga mos keladi (nomerlari daftar sahifasining o'ng yuqori burchagida keltirilgan).

Daftarda joylashtirilgan va aniq darsga mo'ljallangan materialni o'quvchilar bilan to'la bajarish kerak.

Daftarda mustaqil ishlar bilan bir qatorda odatda, har bir mashg'ulotda har xil didaktik materiallar bilan bajariladigan amaliy ishlar o'z o'rnini topishi kerak. Predmetlar plastmassadan qilingan kichkina o'yinchoqlar: sabzichalar, bodringchalar, olmalar va shu singarilar yig'masi, har xil o'lchamli va rangli geometrik shakllar (doirachalar, uchburchaklar, kvadratlar) sanoq cho'plari va boshqa didaktik materiallar bo'lishi mumkin. Bu didaktik materiallardan foydalanish metodikasi haqida kursning asosiy masalalarini qarashda mufassal gapiriladi. Darsga tayyorlanishda o'qituvchi bunday mashqlar sonini aniqlashda matematika darsi birinchi sinfda vaqt bo'yicha 3 ta taxminan teng bosqichga bo'linishini hisobga olishi kerak: har xil demonevasiyalar, har xil didaktik materiallar bilan amalni ish taxminan 10 minut, darslik bo'yicha ishlash taxminan 10 minut va nihoyat, daftar bo'yicha ishlash - bu ham taxminan 10 minut. Zaruratiga qarab darsda bir yoki ikki fizminutlar o'tkaziladi.

V. Yil davomida ishni rejalashtirish haqida

Yil davomida ish istiqbolini yorqin tasavvur qilish uchun oldindan o'quv materialining choraklar bo'yicha taxminiy taqsimlanishi bilan tanishish muhimdir.

DARSLARGA DOIR KO'RSATMALAR I Ch O R A K (36 soat)

Sonlarni va ular ustida amallarni o'rganishga tayyorgarlik (16 soat)

1-dars 1. O'quvchilarning tayyorgarliklarini aniqlash.

Bolalar o'zlari ishlagan rasmlarida kattalarning mehnat qilishlari haqida gapirishadi. Bu rasmlardan bolalar o'z Vatanlarini, uning tabiatini sevishlari, mamlakatimiz qanday yashayotgani bilan qiziqishlari va bilishlari ko'rinib turibdi".

Shu rasm bo'yicha bolalarga berish mumkin bo'lgan savollar:

"Rasmda nechta bola bor?, Yetakchilar nechta?, Hammasi bo'lib nechta odam bor?, Bolalar ishlagan rasmlar nechta? Chap tomonda pastda turgan rasmni diqqat bilan qarang va "nechta", "chapda", "o'ngda", "yuqorida", "pastda", "oldida" va shu kabi so'zlardan foydalanib ularga oid savollar tuzing.

Bolalar chizgan boshqa rasmlar ham shunga o'xshash qaraladi.

"Stolga diqqat bilan qarang. Unda nechta minora krani bor?.. Traktorlar-chi?, Yuk mashinalarchi?" va hokazo.

Bolalar mantiqiy mashqlarni bajarishda har qaysi rasm bo'yicha chapdan o'ngga qarab xisoblaganda qaysi predmetning rasmi birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi bo'lib ishlaganini aniqlashadi.

7. Daftarda ishlash.

1) Kvadratlar, doiralar va uchburchaklar ustidan qalam yurgizib chiqing va bo'yang. Kvadratlar doiralardan ko'p bo'lishi uchun nechta kvadrat kerak bo'lsa, shuncha kvadrat chizing. Kvadratlar qancha bo'lsa, uchburchaklar shuncha bo'lishi uchun nechta uchburchak kerak bo'lsa, shuncha uchburchak chizing.

2) Rassom doiradan foydalanib, qanday predmet rasmini ishlagan Doiralardan foydalanib yana qanday predmetlar rasmlarini ishlash mumkin. Shular rasmini ishlang.

3) Katak'larga chizilgan figuralar ustidan qalam yurgizib chiqing. Satr oxirigacha figuralar rasmini chizing.

Kitob beti bo'yicha:

1) Nechta paxta chanog'i rasmi solingan bo'lsa, shuncha bayroqcha rasmini chizing.

2) Chiziqlar ustidan qizil qalam yurgizib chiqing. Satr oxirigacha kataklarga naqshlar chizishni davom ettiring.

3) Satr oxirigacha kataklarga naqsh chizishni davom ettiring.

Mavzu. 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar. 0 soni.

Mavzuni o'rganishning asosiy vazifalari.

1. 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar ketma-ketligini erkin egallash. 0 sonining sonlar qatoridagi o'rnini bilish.

2. Ko'rsatilgan sanoq tartibida berilgan gruppadagi predmetlarni sanash va uning har bir predmetining tartib nomerini aniqlash malakasini egallash.

3. 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar qatorida har bir son qanday paydo bo'lishini ongli o'zlashtirish (sanoqda oldin keladigan songa 1 ni qo'shish yoki keyin keladigan sondan 1 ni ayirish bilan hosil qilinadi).

4. Raqamlarni o'qish va har bir raqamni (bosma yoki yozma) predmetlarning tegishli soniga mos qo'yish. (Bu bosqichda bolalar yozishga hali o'rgatilmaydi.

5. Sonlarni taqqoslash malakasini (tegishli mashqlar $>$, $<$, $=$ belgilaridan foydalanmay bajariladi) egallash.

6. 2, 3, 4, 5 sonlarining ikki qo'shiluvchidan iborat tarkibining hamma hollarini puxta o'zlashtirish.

7. $1 + 1$, $3 - 2$, $2 + 3$ va hokazo ko'rinishidagi eng sodda matematik yozuvlarni o'qish va. bunday yozuvlarni konkret illyustrasiyalar bilan ta'minlash. To'la predmet ko'rsatmalilik asosida tegishli masalalarni yechish va ularning yechimlarini "yozish" ($1 + 1 = 2$, $3 - 2 = 1$, $2 + 3 = 5$ va hokazo).

8. Doira, uchburchak, kvadratlarni bir-biridan farq qilish va atash.

Bu yo'nalishlarning har biri bo'yicha ishlash metodikasini konkretlashtiramiz.

1. Sonlar ketma-ketligini erkin egallash kerak. bu ushbuni bildiradi:

a) bu ketma-ketlikni istalgan sondan boshlab to'g'ri va teskari tartibda aytish;

b) sanoqda berilgan sondan keyingi, berilgan ikki son orasidagi, sanoqda berilgan sondan oldingi sonni ayta olish.

Sonlar qatorini erkin egallash uchun mavzu bo'yicha har bir darjda mazmuni bo'yicha ham, shakli bo'yicha ham xilma-xil bo'lgan mashqlarni kiritish zarur.

2. Predmetlarni sanash malakasini shakllantirish oldingi darslarda boshlangan edi. "1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar" temasining vazifasi bu malakani uzil-kesil puxtalashdan iborat. Bunda shu narsa nazarda tutiladiki, bolalar predmetlar sanog'ini har xil sharoitda bajarishni o'rganib olishlari kerak, bunda sanash obyektlari nihoyatda xilma-xil (predmetlar, harakatlar, so'zlar, bo'g'inlar, tovushlar va h. k.) bo'lishi kerak.

"Bolalar" katta kubchalarni sanang. Sanamay turib, kichik kubchalar nechta, degan savolga javob berish mumkinmi?" (Mumkin. Katta kubchalar 7 ta, kichik kubchalar ham shuncha, demak, ular ham 7 ta) tipidagi mashqlarda sanash malakalarini qo'llana oladigan bo'lishlari uchun "shuncha" tushunchasini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mashqlarni takrorlash foydali. Shundan keyin ushbu ko'rinishdagi mashqlarni taklif qilish mumkin. "Doiralar va uchburchaklar soni teng bo'lishi uchun nima qilish kerak?" Bolalar bunda quyidagidek mulohaza yuritishlari muhimdir: "6 ta doirachaga yana bitta - yettinchi doirachani qo'shish mumkin" yoki "7 ta uchburchakdan yettinchi uchburchakni olish mumkin". Bu, predmetlarni qayta sanashdan bittalab qo'shib sanashga o'rgatishga tayyorgarlikdan iboratdir. Bu esa bolalar keyingi temada tanishadigan masalalarni yechishga tayyorgarlikdir.

Predmetning tartib nomerini aniqlash malakasini egallashda bir predmetning o'zi qanday sanash tartibida bajarilganligiga qarab (savol qanday ifodalanishiga qarab) har xil tartib nomeri oladigan mashqlardan foydalanish muhimdir.

Masalan: "Agar figuralar chapdan o'ngga qarab sanalsa, katta qora doira sanoq bo'yicha nechanchi bo'ladi? O'ngdan chapga qarab sanalsa-chi? Agar katta doiralarniig o'zlarinigina chapdan o'ngga qarab sanalsa-chi? O'ngdan chapga qarab sanalsa-chi?"

3. Olingan bilimlarni umumlashtirish, so'ngra ularni yangi sonlarga tatbiq qilish uchun qar bir yangi sonni qarash doimo ilgari o'rganilgan sonlar qanday hosil bo'lganidek savol albatta namoyish etish bilan kuzatilishi kerak.

Yangi sonlar bilan tanishtirilgan sari bunday savollarni qo'yish va ularga javob berishda bolalarning hissasi orta borishi kerak. Bu xil mashqlar natijasida (agar bu xil mashqlar har bir sonni o'rganishda sistemali o'tkazib turilsa) bolalar umuman har bir son oldingi songa 1 ni qo'shish (shunga o'xshash har bir son o'zidan keyingi sondan 1 ni ayirish) bilan hosil qilinishi mumkin, degan xulosaga keltirilishi kerak

Bu xil mashqlarni bajarishda "sonli zina" yaxshi mos keladigan illyustrasiya hisoblanadi, "sonli zina" lar darslik sahifalarida ham (topshiriqlarni har xillashtirishgina emas, balki ularni murakkablashtirish uchun ham har xil variantlarda), o'qituvchining jadvallarida ham berilishi mumkin.

4. Har bir yangi sonni qarashda bolalar tegishli raqam - bosma va yozma raqam bilan tanishadilar. Ular raqamlarni farq qilishni, tanish raqamlari" boshqalari ichidan ajratishni o'rganib olishlari kerak, masalan, 5 sonini o'rganishda o'qituvchi katakli taxtachaga 1, 3, 5, 6, 7, 2 raqamlarini va terib qo'yadi va bolalarga 5 raqamini² raqamini ko'rsatishni taklif qiladi (hamma tanish raqamlarni o'qish va ko'rsatishni taklif qiladi va hokazo).

5. 10 ichida ayirishning bolalar uchun yangi bo'lgan qiynroq hollari bilan tanishtirishning darslikda berilgan sistemasi 6, 7, 8, 9, 10 sonlari tarkibini bilganishshi uzil-kesil puxtalash uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi. Mavzu bo'yicha qar bir darsda ish bu sonlardan har birining tarkibini yuqorida ko'rsatilgandek, takrorlashdan boshlanib, sonlar tarkibini bilganlikni puxtalash bilan tamomlanishi kerak. Bunda o'qituvchining vazifasi har bir o'quvchi son tarkibining hamma hollarini qatorasiga va tanlab-tanlab ayta oladigan bo'lishiga erishishdan iborat. Shu maqsadda qaralayotgan qar bir sonning tarkibidan iborat yig'ma jadvallardan 4 - mashq kabi topshiriqlardan foydalaniladi, oxirgi

xil mashqlarda berilgan son ajralishi kerak bo'lgan ikki sondan biri bo'ladi. qaralayotgan darslarda sonlar tarkibini illyustrasiyalashning bolalar ilgari tanish bo'lgan (rezinkaga tizilgan ikki rangli doiralar, tasmalarni usullarini eslash foydali.

6. Masalalar ustida ishlashda bolalarda masala matnida berilganlarni mustaqil tahlil qilish va amal tanlashni asoslab berish malakalarini tarkib ettirishga katta e'tibor berish kerak. Bolalarni har xil turdagi masalalarni, har bir masalaning uni yechishda amal tanlashda aks etadigan xususiyatlarini belgilashni o'rganib olishlarini nazarda tutib, qarshi qo'yish va taqqoslash bo'yicha mashq qildirish kerak.

7. Santimetr bilan ishlash va chizqich yordamida o'lchash davom ettiriladi. Tegishli malaka va qo'nikmalarni mustaqamlash maqsadida santimetrli bo'limlarga ega chizqich yordamida kesmalarni o'lchash va taqqoslash bo'yicha amaliy ishlar bajariladi.

8. Sonlar ketma-ketligini o'zlashtirish ishi butun ikkinchi yarim yillik davomida olib borilishi kerak. Bu ish qaralayotgay tema bo'yicha darslarda ham davom ettirilishi kerak.

Darslarga doir ko'rsatmalar

58- d a r s 6, 7, 8, 9, 10 sonlaridan ayirish.

Darsning maqsadi: 1) Bolalarni ayirish usuli bilan tanishtirish; 2) 6-D ko'rinishidagi hollarda ayirish usulini qarash.

O'tilgan material ustida ishlash. Og'zaki mashqlar va amaliy ishlar.

1. 0 dan 10 gacha sonlar ketma-ketligini sonlarning ortib borish tartibida istalgan sondan boshlab aytish. "Zanjir bo'lib sanash" o'yini. Ushbu ko'rinishdagv mashqlar: "Sanoqda 13 sonidan keyin keladigan (20 sonidan oldin keladigan, 9 bilan 11 sonlari orasida keladigan) sonlarni ayting".

2. 10 ichida predmetlar sanog'i har xil amaliy masalalarni (qatordagi o'quvchilar sonini va ularga tarqatilishi kerak bo'lgan daftarlarni, kitoblarni va hokazoni sanash) yechishda bolalarni 10 ichida sanash malakalaridan foydalanish va bu malakalarni rivojlantirish kerak.

3. Yangi materialni o'rganishga tayyorlash sifatida sonlar tarkibini illyustrasiya qilishning bolalarga tanish usullaridan foydalannb 6 soni tarkibini takrorlash kerak, bu usullar: predmetlarni bir tokchadan ikkinchisiga olib qo'yish, qatorda bir nechta predmetni qalam bilan ajratish, sonli figurada bir nechta doirani ajratish. "Misol o'ylab top" o'yini.

4. Qo'shish bilan ayirish orasidagi bog'lanishni ochib beruvchi misollar uchligini yechish ham yangi materialni o'rganishga tayyorgarlik bo'ladi:

$$6 = 4 + 2; \quad 6 - 2 = 4; \quad 6 - 4 = 2.$$

1-Topshiriq . Birinchi sinf darsligidagi rasmlardan foydalanib nomerlash mavzusi bo'yicha suhbat qiling.

2-Topshiriq. Birinchi sinf darsligidan nomerlash mavzusini o'rganib ungda ko'rsatilgan mashqlarda:

a) tartib raqamlari:

b) predmetlarni aytish va solishtirish tufayli hosil bo'lgan raqamlarni aniqlang:

v) o'lchov miqdori sifatida raqam yuqoridagi vazifalarda o'z aksini topganligini aniqlang.

3-topshiriq. Birinchi sinf darsligidan mashqlar tanlab hisoblash ko'nikmasini rivojlantiruvchi va uni eslab qolishga xizmat qiladigan topshiriqlar tuzing.

4-topshiriq. didaktik materiallar orqali sanoq va yangi sanoq birligi to'g'risidagi o'yinlardan muntazam foydalaning.

5-topshiriq. Taqoslashga oid og'zaki mashqlar sistemasini tuzing.

II - BOB

1 sinfda sonlarni nomerlashni o`rganish metodikasi

2.1 O`nlik ichida sonlarni nomerlashni o`rganishga tayyorgarlik davri xususiyatlari

Sonlarni nomerlashni o`rgatishga tayyorgarlik davrining asosiy vazifasi bolalarning bilim, ko`nikma va malakalarini sistemalashtirish va to`ldirish, nomerlashni o`rganishga o`tishda zarur bo`ladigan bilimlarni egallashlariga sharoitlar yaratish, birinchi sinfga kelgan bolalarning matematik tayyorgarligini o`rganishdan iborat. Bolalarning tayyorgarlik darajasini 1-sentyabrgacha aniqlash maqsadga muvofiq. Agar birorta sababga ko`ra o`qituvchi o`quv yilining boshlanishiga qadar bo`lg`usi o`quvchilari bilan tanisha olmagan bo`lsa, bolalarning tayyorgarlik darajasi tayyorgarlik davrida aniqlanadi.

Bolalarga qo`yidagi savollarni berish mumkin:

- 1.Sanashni bilasanmi? Sanab ko`rchi?
- 2.Bu yerda nechta cho`p bor? (masalan: 4 ta cho`p beriladi)
- 3.Qaysi doirachalar ko`p? Ko`k doirachalarmi yoki qizil doirachalarmi? (Stolda aralash holda 5 ta qizil va 6 ta ko`k doiracha yotibdi).

Olingan ma`lumotlarni ularga keyinchalik foydalanish qulay va oson bo`ladigan qilib yozib qo`yish foydalidir.Tekshirish natijalarini hisobga olgan holda bolalar bilan yakkama-yakka ishni darhol boshlab yuborish mumkin.

O`quvchilarning tayyorgarligini aniqlash qanday bo`lisnidan qat`iy nazar, o`quvchilar predmetlarni qay darajada sanay olishini aniqlash zarur: ular sonlar ketma-ketligi qaysi chegaralarda biladilar, narsalar to`plamini qaysi usul bilan taqqoslaydilar, (cho`t yordamida narsalarni bir biri bilan mos keltirish bilan yoki «chamalab», ya`ni katta-kichiqiligiga qarab taqqoslash bilan); bolalar «katta» «kichik», shuncha» munosabatlarini to`qri tushunadilarmi? qo`shish va ayirishga doir eng sodda misol va masalalarni yechishni biladilarmi? Ular qanday raqamlar va geometrik figuralarni biladilar.

Sanash malakasini paydo qilish ayniqsa muhimdir, shuning uchun sanashga doir mashqlar tayyorgarlik davrining xar bir darsiga kiritiladi. Sanash bolalar uchun faqat o`quv masalasigina bo`lib qolmasligi uchun sanashga doir topshiriqlar kundalik turmish bilan boglangan bo`lisni kerak. O`quvchilar sanash nima uchun kerakligini, u turmushda

qachon qo'llanishini sekin-asta tushunib borishlari kerak. Tayyorgarlik davrida O'quvchilar har kuni sanash to'qrisida yangi malumotlar bilan tanishadilar.

Masalan: O'quvchilar dastlabki darslarda to'qri va teskari sanab va natijalarni taqqoslab, sanashda narsani (pretmetni) ham, sonlarni ham sanamay o'tkazib yuborish mumkin emas deb takrollash yoki birgina narsaning o'zini bir necha marta sanash mumkin emas deb xulosalar qiladilar. Bolalar narsalarni to'qri tartibda (chapdan o'nga va o'ngdan chapga, yu'oridan pastga va aksincha va x.k) sanar ekanlar, sanash sanoq tarkibiga bogliq emas deb o'z so'zlari bilan xulosa chiqaradilar.

O'quvchilar juftliklarni, uchtaliklarni beshtaliklarni va x.k larni sanab faqat ayrim narsalarnigina emas, balki, narsalar guruhlarini ham sanash mumkinligi va bunda yanada ko'proq narsalarni sanash mumkinligiga ishonch hosil qiladilar. O'quvchilarga sanashda ham miqdoriy sonlardan (bitta, ikkita, uchta), ham tartib sonlardan (birinchi, ikkinchi, uchunchi, ...) foydalanish mumkinligi ko'rsatiladi, terminlar esa bolalarga hozircha ma'lum qilinmaydi. Sanash to'qrisidagi bilimlarni o'quvchilar sanashga doir turli-tuman mashqlarni bajarishda qo'llaydilar va birin ketin o'zlashtira boshlaydilar, sanashni bilish sonlarning miqdoriy va tartib munosabatlarini o'rganishga, yani, nomerlashni o'rganishga asos bo'ladi.

Maktabda qabul qilinayotgan bolalarni tekshirish shuni ko'rsatadiki, bolalarning yozuvda tayyorgarligi eng kam bo'ladi. Shuning uchun dastlabki mashgulotlardan boshlabog har kuni raqamlarni yozish uchun tayyorgarlik mashqlarini kiritish kerak: hoshiyalar chizish, chizgich bilan to'g'ri chiziqlar o'tkazish, raqamlar elemintlarini yozish kabilar. Tayyorgarlik davrida bolalarni matematika daftari va darsligi, didaktik material (uchburchaklar, kvadratlar, doirachalar, cho'plar, qirqma raqamlar), nabor polotnosi, chizgich (to'qri chiziq o'tkazish uchun kerak asbob sifatida) bilan tanishtirish va tarbiyaviy ahamiyatga ega, shuning uchun ularning mazmuni emas, balki tuzilishiga (ogzaki va yozma ishlarning navbatlashib kelishi, amaliy topshiriqlar va qiziqarli mashqlar kiritish, didaktik material va ulardan foydalanish) ham etibor berib, sinchiqlab tayyorlanish kerak. Bolalar toliqib qolmasligi uchun fizmimutlar (jismoniy mashqlar bajarish, sherlarni xor bo'lib harakatlar orqali ifodali o'qish o'tkazish kerak. Bu davrlarda bolalarga o'qishga, maktabga qiziqish uygotish ayniqsa muhimdir. Shu maqsadda o'quv jarayoni bolalar uchun qiziqarli (maroqli), iloji boricha ko'proq ijobiy his-hayojonlar uygotadigan bo'lisniga katta etibor berish kerak. Yaxshilab bezatilgan sinf, chiroyli

ko'rgazmali qurollar, o'qituvchining etiborli, yaxshi muomilasi bolalar uchun ogirlik qilmaydigan qiziqarli darslar bunga imkon yaratadi.

O'quv jarayonini demonstratsion hamda yakka foydalaniladigan o'quv qurollari to'plami bilan taminlashga oldindan etibor berish kerak. Olti yoshli bolalar bilan ishlashda ko'rgazmali qurollardan foydalanish asta-sekin aniqlikdan abstraktlikka o'tish masalasiga buysindirishi kerak. Shuning uchun real narsalarni qarashdan ularning yassi tasmvirlariga (faqat bir o'zinigina emas, balki, syujetli rasm shaklida ham) so'ngra abstrakt qurollar (abak, sonli jadvallar, sonli figuralar, geometrik figuralar va hokazo) ga o'tish kerak.

2.2. O'nlik ichida sonlarni o'qish, yozish va taqqoslash.

Bu bosqichda o'qituvchining vazifasi bolalarda sanash malakalarini shakllantirish va 1-10 sonlari kesmasida natural qatorning tuzilishini ochib berish va bu asosda sonni natural ketma-ketligining xadi sifatida tariflashdan iborat. Buning uchun o'quvchilar qo'yadigilarga erishishlarini taminlash zarur:

1dan 10 gacha sonlar ketma-ketligini yaxshi o'zlashtirib olishlari kerak; narsalarni sanashni va sanash tartibi ko'rsatilganda xar bir narsaning berilgan guruhdagi tartib nomerini aytib bera olishlari kerak;

Sonlarning 1 dan 10 gacha qatoridagi har bir son qanday (oldingi songa 1 ni qo'shish yoki shu sondan 1 ni ayirish orqali keyin keladigan sonlar) hosil bo'lisnini ongli o'zlashtirishlari kerak;

Raqamlarni o'qiy olishlari va har bir (bosma yoki yozma) raqamli narsalarning mos soni bilan mos qo'ya olishlari kerak. Sonlarni taqqoslashni bilishlari kerak (tegishli mashqlar $>$, $<$ q belgilardan foydalanmasdan bajariladi).

2, 3, 4, 5 sonlarning ikkita qo'shiluvchidan iborat sonli tarkibining barcha hollarini mustahkam o'zlashtirib olishlari kerak.

2+1, 4-1, 1+3 va hokazo ko'rinishdagi matematik yozuvlarni o'qiy olishlari va bunday yozuvlarni aniq rasmlar bilan mos qo'yishni bilishlari kerak. To'la tushuntirish asosida tegishli mashqlarni yozish va ularning yechilishlarini raqamli ko'rsatkichlar asosida yozishni ($1+2=3$, $4-2=2$, $1+3=4$ va hokazo) bilishlari kerak;

doira, kvadrat, uchburchaklarni bir-biridan farq qila bilishlari va nomini ayta olishlari kerak.

Bu yo`nalishlarning har biri bo`yicha ish olib borishning uslubini batafsil bayon qilamiz.

1. Sonlar ketma-ketligini yaxshi o`zlashtirib olgan o`quvchi bu ketma-ketlikni to`qri va teskari tartibda istalgan sondan boshlab aytib bera oladi, sanoqda berilgan sondan keyin keladigan sonni, ikki son o`rtasida keladigan sonni, berilgan sondan oldin keladigan sonni aytib bera oladi. Bunday ko`nikma va malakalarga erishishda darslikda berilgan vazifalardan tashqari qo`ydagi mashqlar ham imkon beradi.

___ Mana bu sonda qarang va ko`lingizga shuncha kubik oling.

___Tokchada nechta qo`g`irchok bor? Shunday sonni ko`rsating. (Bolalar mos raqamli kartochkani ko`rsatadilar).

___Qaysi kartochka teskari qilib qo`yigan? (Qaysi son qochib ketdi?, qaysi son berkinib oldi? (2-rasm).



Bolalar mos sonli va raqamli kartochkani ko`rsatadilar).

2-rasm







Sonning chap tomonidagi qo`shnisini ko`rsat. O`ng tomondagi qo`shnisini ko`rsat. Sonning qo`shnilarini ko`rsat(3-rasm). Bolalar kerakli kartochkalarni ko`rsatadilar.

3-rasm



___ Sonlarni tartib bo`yicha qo`yib chiqing. 4-rasm. Bolalar sonli kvadratchalarini o`rganilayotgan sonlar kesmasiga o`qituvchining talabiga ko`ra o`sish yoki kamayish tartibida joylashtiradilar.

4-rasm



Birinchi o`nlik sonlarini nomerlash ustida ishlash jaroyonida bolalarda nol soni haqida tushuncha shakllanadi. To`plamning elementlarini birin-ketin bitta ham element qolmaguncha tashlab bolalar qoldiq to`plamining sonini aytadilar.

(2, 1, 0 tiyin , 2, 1, 0 ta qush va hokazo.)

Bolalar nolni ularga tanish boshqa sonlar bilan taqqoslab, nol 1, 2, 3 va x.k lardan kichik ekanligi va demak bu sonning o`rni 1 sonidan oldin ekanini aniqlaydilar. Keyinroq, nol kamayuvchi ayiriluvchida teng bo`lganda ayirish natijasi sifatida qo`llaydilar.


($1-1=0$, $2-2=0$). O`quvchilar narsalar bilan amaliy mashqlar bajarib (deraza oldidagi gullarni olib qo`yadilar, nabor polotnosidagi doirachalarni olib tashlaydilar. Chizilgan kvadratlarning ustidan chizib qo`yadilar va x.k)  $0-0$  ko`rinishdagi ayirishga doir masalalarni tuzadilar va ularni yechadilar. Shunday qilib bu sonning manosini ochib beradilar.

2. O`quvchilarda sanash malakasini shakllantirishda «Shuncha» «ko`p», «kam», «teng» kabi tushunchalarni o`zlashtirishda qaratilgan mashqlar ham imkoniyat yaratadi.

___ Nechta koptok bor, sanab ko`ring.

Nechta piramida borligini sanamay aytib berish mumkinmi. Mumkin.

Koptoklar 7 ta, har bir koptokning ostida qo`g`irchok piramida turibdi. Koptoklar nechta bo`lsa piramidalar ham shuncha. Piramida 7 ta.




6-rasm.

Agar o`yinchoqlar chapdan o`nga qarab sanalsa, katta koptok sanoqda nechanchi bo`ladi? O`ngdan chapga sanalgandachi? va x.k.

3. Sonlarning ketma-ketligida 1 dan tashqari istalgan sonni bu sondan olgan kelgan songa bevosita 1 ni qo`shish bilan yoki bu sondan keyin keladigan sondan 1 ni ayirish bilan hosil qilish mumkin.

O`n ichida istalgan sonni hosil qilish qo`ydgagi keltirilgan misollar orqali ochib beriladi. O`qituvchi 4 sonining hosil bo`lisnini ko`rsatmokchi deylik. U bolalar oldilariga 2 ta doiracha, so`ngra yana 1 ta doiracha qo`yishni buyiradi. Doirachalar nechta bo`lgani va 3 ta doiracha qanday hosil bo`lgashani aniqlanadi. Keyin yana 1 ta doirachalar qo`shiladi va yana o`sha savollarga javlb beriladi: doirachalar nechta bo`ldi? Xulosa qilinadi 3 va 1 demak, 4 bo`ladi. Xuddi shunday mashqlar boshqa o`yinchoqlar, narsalar bilan, darslikdagi rasmlar bilan, daftarlarga bajariladi, bu bolalarga to`plamlar ustida amallar bajarishni umumlashtirishga, sonlar ustida amallar bajarishga o`tish va ularning hosil bo`lisnini tushinishga yordam beradi. (8-rasm).

8-rasm



olalarga sonning alohida berlardan ham hosil bo`lisnini ko`rsatish zarur. Bizning holda (4 sonining hosil bo`lisni) misol uchun turli o`yinchoqlardan foydalanish mumkin.(8 rasm).

Kvadratlar nechta? Uchburchaklar nechta? Piramida nechta? koptoklar nechta? Hamma o`yichoqlar nechta? (bolalarning javoblaridan keyin o`qituvchi umumlashtiradi: To`qri, bolalar kvadratlarni 1, koptok 1, uchburchaklar 1, piramida 1, hammasi bo`lib 4 ta o`yinchoq, 4-bu 1, 1, 1, va yana 1.). Sonni undan oldin keladigan songa 1 ni qo`shish bilan hosil qilinar ekan o`qituvchi sonni undan keyin keladigan sondan birni ayirish bilan qanday hosil qilish mumkinligini ko`rsatadi. Bizning holda o`qituvchi 4 sonini 3 ga bitta narsani (pridmetni) qo`shish orqali hosil qilgach, 4 ta doirachadan bittasini olib qo`shib 3 ta doiracha qanday hosil bo`lisnini ko`rsatadi. So`ngra yana bitta doiracha olib qo`shiladi va 2 ta doiracha qanday hosil bo`lisnini ko`rsatadi va x.k.

Natural sonlar qatori orasidagi munosabatlarni o`zlashtirishga «sonli zinapoyalar» yordam beradi.(9-rasm).

Bolalar narsalardan yoki sonlardan «sonli zinapoyalar» tuzib, sonlar kattaliklari bo'yicha va tartiblanganliklarida ishonch hosil qiladilar, sanoqda 1 sonidan keyin undan 1 ta ortiq bo'lgan 2 soni aytiladi. 5 sonidan oldin undan bitta kam (kichiq) 4 son aytiladi, 2 sonidan oldin undan 1 ta kichiq 1 soni aytiladi. 5 va 7 sonlari orasida 5 dan katta 7 dan kichik bo'lgan 6 soni joylashgan va x.k.

1-10 ichidagi sonlarni nomerlashning barcha masalalari qo'yiladi amaliy mashqlarni asosida o'rganiladi: o'yinchoqlarni qo'shish, daftarlargda berilgan sondagi predmetlarni chizib, didaktik material bilan ishlash va x.k.

										10
									9	
								8		
							7			
						6				
					5					
				4						
			3							
		2								
	1									

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10

masalan: 1, 2, 3, 4 sonlarni o'rganishda bolalar ko'rgazmali vositalar yordamida 1+1, 2+1, 3+1 amallarni bajaradilar, buning asosida 2, 3, 4 sonlarini qanday qilib hosil qilish

mumkinligi to'qrisidagi xulosa chiqaradilar. 4-1, 3-1, hollar ham shunday qaraladi va 2 va 3 sonlarini boshqacha hosil qilish mumkin, deb xulosa chiqaradilar.

4. Yangi sonlar kiritilgan darsda o'quvchilar bu sonlarning bosma raqamlar(qirqma kartochkalar) orqali belgilanishi bilan tanishadilar. Bu raqamlar yordamida o'quvchilar o'rgangan sonlarni nomerlashga doir mashqlarni (sonni hosil qilish, taqqoslash, sanoqda har bir sonning o'rnini aniqlash) bajaradilar.

Nabor polotnosida ko'rsatilgan 9, 3, 6, 8, 1, 5 raqamlar qatorida bolalar o'qituvchi aytgan sonni va u belgilanadigan raqamni ko'rsatishlari kerak. Bosma raqamlar bilan bir qatorda bolalar yozma raqamlar bilan tanishadilar, lekin, hozircha uni yozmaydilar.

5. Bolalar to'plamlarni taqqoslash bilan tayyorgarlik davrida juftlar hosil qilib, qaysi guruhda narsalar ko'p(kam) yoki shunchaligini aniqlaganlarida shugullangan edilar 1 dan 5 gacha sonlarni o'rganishda sonlarni sonlarni taqqoslash xuddi ana shu asosda o'tkaziladi.

O'quvchilar nomerlashni o'rganishning boshida asosan o'qituvchining ko'rsatmasi bo'yicha narsalar ustida bajaradigan amallarni (uchburchaklar nechta bo'lsa, shuncha doiracha qo'ying. Doirachalar nechta bo'ldi? Qaysi biri ko'p bo'ldi? - doirachami yoki uchburchaklarmi? va x.k) tushuntirsalar bu mavzu ustida ishlashning oxirida umumlashtirilgan xarakterdagi mashqlar tavsiya qilinadi. Masalan: 2 va 1, 3 va 2, 4 va 3, 5 va 4 sonlarni taqqoslang hamda xulosa chiqaring (qatorda navbatdagi har bir son 1 ta ko'p), 10-1, 9-1, 8-1, 7-1 misollarni yeching va har qaysi misolda birinchi son bilan natijani taqqoslang so'ngra xulosa chiqaring (agar 1 ayirilsa bitta kam son hosil bo'ladi), 7 va 8 sonlari haqida bilganlaringizni aytib bering (7 soni 8 dan 1 ta kam, 8 soni 7 dan 1 ta ko'p, sanoqda 8ni esa 7 dan keyin aytiladi, 7 ni hosil qilish uchun 8 dan 1 ni ayirish kerak, agar 7ga 1ni qo'shsak 8 hosil bo'ladi).

Bunday mashqlarni bajarishga «sonlar qatori» o'quv vositasi yordam beradi, u nomerlashni o'rganishga doimo o'quvchilarning ko'z o'ngida (sinf doskasining yuqori chetiga mahkamlab qo'yilgan) bo'lisni kerak; 1 raqami va uning tepasidagi rasm, masalan, uchburchak rasmi chizilgan kartochna, 2 raqami va uning tepasidagi 2 ta uchburchak rasmi chizilgan kartochna va x.k.lar ham o'quvchilarga ko'rinarli joyga joydashtirilgan bo'lisni kerak. Uchburchaklar va raqamlarni birin-ketin, yangi yangi sonlarni o'rganishga qarab, qo'yib borish kerak.

6. Nomerlashni o`rganish jarayonida bolalar 2, 3, 4, 5 sonlarning ikkita qo`shiluvchidan iborat sonli tarkibini o`rganish kerak. Bitta sonning ikkita qo`shiluvchidan iborat sonli tarkibini aniqlash uslubini ko`rib chiqamiz.

Aytaylik, o`qituvchi bolalarni 4 sonining ikkita sonli tarkibi bilan tanishtirmoqchi bo`lsin. Tarang tortilgan ipda bir tomoni, masalan, old tomoni ko`k rangda, orqa tomoni sariq rangga bo`yalgan 4ta doirachani bir xil rang bo`yicha joylashtirib, ularning hammasi nechta deb so`raymiz.

4 soni yozilgan kartochkani o`ng tomoniga joylashtiradi. Songa eng chetdagi doirachani aylantirib qo`yadi.

Ko`k doirachalar nechta? (3 ta).

Sariq doirachalar nechta? (1 ta).

Doirachalarning hammasi nechta? (4 ta).

So`ngra yana bitta doiracha aylantirib qo`yamiz va yuqoridagi savolni qaytaradi va x k. Natijada bolalar 4 ichida ikkita sonni qo`shish orqali son hosil qilishning barcha mumkin bo`lgan hollarini va bu sonlarning tarkibini o`zlashtiradilar, chunonchi:

$3+1=4$ 4-bu 3 va 1

$2+2=4$ 4-bu 2 va 2

$1+3=4$ 4-bu 1 va 3

Xuddi shunga o`xshash, bolalar qo`ydagilarni ham eslab qoladilar:

$1+1=2$ 2-bu 1 va 1

$2+1=3$ 3 bu 2 va 1

$1+2=3$ 3-bu 1 va 2

$4+1=5$ 5-bu 4 va 1

$3+2=5$ 5-bu 3 va 2

$2+3=5$ 5-bu 2 va 3

$1+4=5$ 5-bu 1 va 4

mazkur bosqichda bolalar 6, 7, 8, 9, 10 sonlarini misolida hozircha bu sonlarni ulardan oldin keladigan songa 1 ni qo`shsak yoki ulardan keyin keladigan sondan 1 ni ayirish orqali hosil qilish hollarigina o`zlashtiradilar. O`quvchilar nomerlashni o`rganish jarayonida asta sekin navbatdagi mavzu qo`shish va ayirishni o`rganishga tayyorlanadilar.

O`quvchilar narsalar to`plami ustida amallarni bajarish orqali qo`shish va ayirish amallarining manosi tushintira boshlaydilar. «Hammasi nechta?». «Birgalikda nechta», «Ikkalasida nechta» ligini bilish kerak bo`lganda to`plamlarning birlashmasiga sonlarni qo`shish mos keladi, «Nechta qoldi» «Olib ketilgandan so`ng qancha qoldi» hokazolarni bilish kerak bo`lganda to`plamning bir qismini ajratib qo`yishga sonlarni ayirish mos keladi, Arifmetik amallarning mohiyatini bolalar o`zlashtirishlari uchun to`plamlar ustida ko`plab amallar (sonlar ustida mos amallarni bajarish bilan birga) bajarish zarur.


To`plamlar va sonlar ustida amallar bajarishda o`qituvchi o`quvchilarning e`tiborini ushbu miqdoriy o`zgarishlarga qaratadi: «Yana shuncha qo`ydik», «Surib qo`ydik», «ayirdik», oldingisiga qaraganda kam bo`ldi. Ana shu asosda sonlarning bitta so`ngra bir nechta birlikka ortishi yoki kamayishi tabiiy ravishda qabul qilinadi. (1 ni qo`shdik 1 taga, yoki boshqacha, 1 ta ko`paydi; 1 ni ayirdik 1 taga kamaydi). Shu paytdan boshlab qo`shish va ayirishga doir misollar turlicha o`qiladi. (qo`shish yoki orttirish, ayirish yoki kamaytirish) sonni bir birlikka orttirish yoki kamaytirishga doir eng sodda masalalar kiritiladi (Shuncha bor edi 1 ta ko`p yoki kam bo`ldi va hokazo).

7. Qo`shish va ayirish amallarining ma'nosini o`zlashtirishga yigindi yoki ayirmani aniqlashga doir masalalar ustida ishlash yordam beradi, chunki ularni yechish jarayonida o`quvchilar turli hayotiy holatlarni u yoki bu real amallar dastlabki miqdorining ortishiga yoki kamayishiga olib kelishini aniqlaydilar va bu asosda arifmetik amallarni tanlaydilar.


Bolalar rasmlar yoki demonstratsiyalar bo`yicha  $3+1$ ,  $4-1$  kabi yozuvlarni tuzishni o`rganadilar va ularni 3 va 1 bittasi kam 4 deb o`qiydilar, bu bosqichda yozuvlar raqamli va «+», «-» belgisi kartochkalar yordamida narsalarni sanash asosida bajariladi.

8. Bu bosqichda bolalar turli o`lchamli rangdagi (har xil materiallardan) qirqib olingan yoki jadvallarda keltirilgan) doira, kvadrat uchburchaklar bilan tanishadilar va ular to`g`risidagi bilimlarini mustahkamlaydilar. Geometrik figuralar sonlarni hosil qilish, ularni taqqoslash va boshqalarda tarqatma material ko`rinishida ishlatiladi.

Shu bilan birga geometrik figuralar mantiqiy masalalar ko`rinishida ham berilishi mumkin, masalan: (35-rasm)



Nomerlarni o'qishni, ularni taqqoslashni, sonlar qatorining birligini, bir son sanoqda qaysi sondan oldin kelishi, qaysi sondan keyin kelishini) $\square = \square + 1$ ko'rinishdagi misollarni birinchi sonning birliklarini sanab o'tirmasdan, nomerlarni bilishiga tayanib, natijani birdaniga aytish bilan yechishni o'rganishlari kerak, bundan tashqari bolalar kuzatishlar va taqqoslashlar asosida eng sodda (yod olish shar bulmagan) xulosalar chiqarishga o'rganadilar, masalan, sanoqda har bir aytiladigan son o'zidan oldin keladigan sondan bitta katta, o'zidan keyin keladigan sondan bitta kichikdir, agar songa 1 qo'shilsa (ayrilsa), 1 taga ko'payadi (kamayadi). Sonni 1 ta orttirish (kamaytirish) uchun 1 ni qo'shish (ayrish) kerak. Agar songa 1 ni qo'shsak undan, undan keyin keladigan sonni hosil qilamiz, agar sondan 1ni ayirsak undan oldin keladigan sonni hosil qilamiz, agar birinchi son ikkinchi sondan bitta katta bo'lsa, ikkinchi son birinchi sondan bitta kichikdir.



2.3. «Yuzlik» mavzusida sonlarni nomerlashni o'rganish metodikasi.

- 100 ichida sonlarni nomerlashni o'rganishda o'qituvchining vazifasi:
- o'quvchilarga predmetlarni bittalab va guruhlab sanashga o'rgatish;
 - 100 ichida sonlarni o'qish va yozishga o'rgatish;
 - o'ngdan chapga hisoblaganda birliklar va o'nliklar qaysi o'ringa yozilishini o'rgatish;
 - u yoki bu xona birliklari yo'qligini qanday belgilashni ko'rsatish;

-birinchi va ikkinchi xona birliklari, xona soni, xona qo'shimchalarining yig'indisi, bir xonali sonlar, ikki xonali sonlar kabi yangi tushuncha va terminlarni o'quvchilar o'zlashtirib olishlariga erishish kerak.

Nomerlashni o'rganishda ikki bosqich ajratiladi:

11-20 va 21-100 sonlarni nomerlash.

20 gacha bo'lgan va 21-100 gacha ikki xonali sonlarni nomerlash bir-biriga printsiplial o'xshash: bu sonlarni og'zaki va yozma nomerlash sanoqda birliklarni o'ntalab guruhlashga va sonlarni yozishda raqamlarning o'rin qiymatlari printsipliga asoslanadi. Shu sababli ikkinchi o'nlik sonlarining o'nli tarkibini o'zlashtirish va bu sonlarni yoza olish ishi 100 ichida sonlarni o'rganishga tayyorgarlik bosqichi bo'lib xizmat qiladi.

11-20 va 21-100 sonlar bilan tanishtirish quyidagicha reja asosida amalga oshiriladi;

-tayyorgarlik ishi

-og'zaki nomerlash

-yozma nomerlashni o'rganiladi.

11-20 sonlarni nomerlashni o'rganishdagi tayyorgarlik ishi «O'nlik» mavzusini takrorlashda o'tkaziladi. Shu maqsadda narsalarni 10 dan oshirib sanashga doir mashqlar (11,12.....) shuningdek narsalarni guruhlab sanash (juftlab) kiritiladi. Bunday mashqlar o'quvchilarni birinchi o'nlik sonlaridan tashqari ham sonlar mavjud ekanligiga, ularni ko'pligiga, ularni belgilash, atash, hosil bo'lish, qatorida kelish tarkibida bolalarga tanish bo'lgan sonlar orasida ma'lum o'xshashlik borligiga ishonitiradi.

2 o'nlik sonlarni og'zaki **nomerlashni o'rganishni** 10 haqidagi tushunchani shakllantirishdan boshlanadi. Bolalar cho'plardan 10 tadan qilib bog'lab, 10 ta bir bitta unlikni hosil qilishini ko'radilar. So'ngra ular o'ntalik cho'plarni sanash mashqlarini, o'nliklarni qo'shish va ayirishni bajaradilar ($2o'n+3o'n=5o'n$, $7o'n-3o'n$, $4o'n-2o'n$). Shunday mashqlar asosida o'quvchilar o'nliklarni oddiy birliklar kabi sanash, qo'shish va ayirish mumkin ekan, degan xulosa chiqarishadi.

So'ngra 11-20 sonlarining hosil bo'lishiga doir ishlar bajariladi.

Amaliy ish: 10 ta cho'pni sanang, sizda qancha cho'p borligini boshqacha qanday atash mumkin? (1 o'nlik). Cho'plarni bog'lang, ustiga bitta cho'p qo'ying. Hammasi qancha bo'ldi (11) 11 sonda nechta o'nlik va nechta birlik bor? Navbatdagi sonlar ustida

ishlash ham shunga o'xshash olib boriladi, bunda o'quvchilar 2-o'nlik sonlarining o'nlik tarkibi va sanoqdagi tartibini o'zlashtiradilar.

Uzunliklarni o'lchashning yangi birligi - **dm** bilan tanishish, kesmalarni sm va dm bilan o'lchashga oid mashqlar ikkinchi o'nlik sonlarni nomerlashni o'zlashtirishga yordam beradi. Ikki xil o'lchov birligi bilan o'lchash o'quvchilarga sonlarning o'nlik va birliklarda hosil bo'lishini o'zlashtirishga yordam beradi: agar kesmaning uzunligi 1 dm 3 sm bo'lsa, demak unga bir o'nlik sm va yana 3 sm sig'adi degan so'zdir.

Og'zaki nomerlashni o'rganishda, so'ngra yozma nomerlashda sonlarni xona qo'shiluvchilariga ajratishga keltiriladigan qo'shish va ayirish hollari qaraladi. (10+7, 18-10, 15-5). 10 dan katta sonlarni yozma nomerlash sanoqda birliklarni o'nlik guruhlashga va raqamlarning o'rin qiymatlari printsipini qo'llanishga asoslangan: o'ngdan chapga qarab sanalganda birliklar birinchi o'ringa, o'nliklar ikkinchi o'ringa yoziladi.

Yozma nomerlashni o'rganishda abak alohida ahamiyatlidir: bir bo'lak karton tik chiziq bilan ikkiga bo'linadi, bu qismlarning har birga ikki qatordan cho'ntaklar yopishtiriladi: yuqori qatorda cho'ntaklari cho'plar yoki boshqalarni qo'yish uchun, pastki chuntak esa bosma raqamlar yozilgan kartochkalarni qo'yish uchun mo'ljallangan. Yuqoridagi cho'ntaklarning o'ngdan birinchisiga sanoq cho'plari, ikkinchi o'ringa esa cho'plarning o'ntalik dastalari qo'yiladi: pastki cho'ntaklarga esa raqamlar-o'ngdan birinchisiga birliklar, ikkinchisiga o'nliklarni ifodalovchi raqamlar qo'yiladi.

Sonlarni yozish malakasini mustahkamlash uchun individual qo'llanmalarning ustiga «o'nlik», «birlik» lar yozilgan xonalar jadvaldan, shuningdek ikki qator so'rilma raqamlari bo'lgan jadvaldan foydalanish mumkin. Bunda og'zaki nomerlash ham takrorlanadi.

11-20 sonlarni o'rganishda o'quvchilar **bir xonali son, va ikki xonali son** terminlari bilan tanishtiriladi.

Topshiriqlar:

1. Ushbu sonlar qatoridan oldin bir xonali, keyin 2 xonali sonlarni yozig: 2, 13, 8, 17, 15, 6, 11.
2. 4 ta bir xonali sonlarni yozing va har bir sonni 10 ta orttiring, qanday sonlar qosil bo'ladi?
3. 1 va 2 raqamlari yordamida oldin bir, keyin ikki xonali sonlarni yozing.

21-100 sonlarini nomerlashni o`rganish quyidagi tartibda amalga oshiriladi.


1. O`nliklar sanog`i, 10,20,30... sonlar hosil bo`lishi va atalishi.
2. Sonlarning o`nliklar va birliklardan hosil bo`lishi. Ikki xonali sonlarning o`nlik tarkibi, 100 ichida sonlarning natural ketma-ketligi.
3. Ikki xonali sonlarni yozma nomerlash, yozish, o`qish, birinchi va ikkinchi xona birliklari.
4. Sonlarni nomerlashni bilishga asoslangan qo`shish va ayirish usullari ( $73 \pm 1$ ), shuning ikki xonali sonlarning o`nli tarkibini birganlik asosidagi qo`shish va ayirish usullari ($40+7$, $68-8$, $39-9$...).
5. Ikki xonali sonni xona sonlarining yig`indisi bilan almashtirish. ($73=70+3$).

Demak, ko`rinib turibdiki, 21-100 va 11- 20 ichida sonlarni nomerlashni o`rganish ko`pgina o`xshashliklarga ega ekan. Bunda **xona va xona sonlarini** tarkib toptirish yanglikdir. (Xona soni - biror xona birliklaridan iborat bo`lib, ular 9 ta dan ortmaydi; 100 ichida esa bu sonlar yo faqat birliklardan yoki faqat o`nliklardan tuzilgan sonlardan iborat). I xona birliklari va II xona birliklari sonlarning o`nli tarkibini tahlil qilish jarayonida ta'rifsiz, amaliy ravishda kiritiladi. **Masalan:** 46 sonda 4 o`nlik va 6 birlik bor deyiladi. Buni boshqacha: 46 son I xonaning 6 birligi va II xonaning 4 birligidan tashkil topgan deyish ham mumkin.

Xona soni tushunchasini egallab olish uchun o`quvchilar bilan 1, 2, 3.... 9, 10, 20.... 90 kabi xona sonlari yozilgan kartochkalar yasash foydali. Bu kartochkalar yordamida istalgan ikki xonali sonni belgilash mumkin. **Masalan:** 7 soni yozilgan kartochkani 10 sonidagi birlik ustida qo`yib 17 sonini hosil qilinadi. Teskari topshiriqlar ham berish mumkin: 42 va 24 qaysi xona sonlaridan tashkil topgan?

$$(42=40+2, 24=20+4)$$

50+7, 48-40, 37-7 kabi qo`shish va ayirish hollari uchun ham kartochkalarni qo`llash mumkin.



Kartochkalar bilan bajariladigan bunday amaliy ishlar har qanday sonni xona sonlarining yig`indisi shaklida tasvirlashdek muhim operatsiyani o`zlashtirib olishning asosi bo`lib qoladi ( $67=60+7$ ,...). Shuni aytib o`tish kerakki, bu bosqichda sonlar ikki

sonning yig'indisiga namunaga qarab almashtiriladi, xona qo'shiluvchilari termini keyin kiritiladi. Bu bilimlar qo'shish va ayirishni o'rganishda mustahkamlanadi.

100 ichida sonlarni nomerlashni o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab olishlari kerak:

1. 100 ichida sonlarning nomlarini o'zlashtirish; ular o'nlik va birliklardan qanday hosil bo'lishini tushunish:

2. Sanoqda sonlarning kelish tartibini bilish; sonlarni taqqoslay olish:

3. 100 ichida sonlarni yozish va o'qiy olish; o'ngdan chapga sanalganda birlik va o'nliklar qaysi o'ringa yozilishini o'zlashtirish.

4. Natural ketma-ketlikni bilganlik asosida sonlarni qo'shish va ayirishni bilish ($39+1, 50-1...$), shuningdek sonlarning o'nli tarkiblarini bilganlik asosida qo'shish va ayirishni bilish ($60+5, 85-5, 54-50...$), sonlarni xona qo'shiluvchilarining yig'indisi bilan almashtirish malakasini egallab olish kerak.

2.4. Didaktik o'yinlardan foydalanish.

Bizga malumki, amalda bolalarning quyidagi o'yinlari mavjud: ijodiy harakatli, didaktik, predmetli, ijrochilik. Bolalar bu o'yinlarning hammasiga (vaqti bilan) qatnashib, qoniqish hosil qiladilar. Bolaning o'yin faoliyati o'quv jarayoning biror ko'rinishida namoyon bo'libgina qolmasdan, balki o'qitish metodi hamdir. Matematik mazmundagi didaktik o'yinlarni tashkil etishda metodikaning quyidagi masalalari haqida o'ylashga to'g'ri keladi.

1. O'yining maqsadi o'yin jarayonida bola matematika sohasida qanday malaka va ko'nikmalarni o'zlashtiradi. O'yining qaysi paytida alohida e'tibor berish kerak. O'yinni o'tkazishda boshqa qanday tarbiyaviy maqsadlar kutiladi.

2. O'yinda ishtiroq etuvchilar soni haqida har bir o'yin aniq eng kam va eng ko'p ishtirok etuvchilarni talab qiladi. O'yinni tashkil etishda bu masalaga alohida e'tibor berishi kerak.

3. O'yin qanday materallar va boshqa o'quv qurollari kerak,

4. Kam vaqt sarflab o'yin qoidalari bilan bolalarni tanishtirish kerak.

5. O'yin qanday vaqtda tayillangan bo'lishi va bolalar bu o'yinga yana bir marta qaytishga istak bildirsin.

6. Qanday qilib o'yinga qiziqtirish kerak, bu narsani aniqlash uchun bolalarni kuzatishni qanday tashkil etish kerak.

7. Qanday qilib oyinga koproq bolalarni jalb etish kerak.

8. Bolalarning o'yinga bo'lgan qiziqishi va faolligini oshirish uchun o'yinga o'zgartirishlar kiritish kerak.

9. O'yinga boshqa matematik materiallar kiritish uchun o'yin mazmuniga qanday qilib foydalanish kerak.

10. O'yindan keyin bolalarga qanday xulosalarni ma'lum qilish kerak.

Matematik o'yinlarga bolalar bilan bir qatorda kattalar, matematik-olimlar ham qiziqib kelishgan. O'tgan asrimizning 40-yillarida matematikaning mustaqil sohasi o'yin nazariyasi nomi bilan yuzaga kelgan. Bu murakkab nazariya dastlab shaxmat, shashka va boshqa o'yinlarni matematik nuqtai nazardan o'rganish asosida payda bo'ldi. Hozirgi paytda o'yin nazariyasi xalq xo'jaligi va ijtimoiy hayotining ko'pgina sohalarida qo'llanib, o'yin haqidagi tushuncha borgan sari rivojlanib bormoqda. Matematik o'yinlarini tashkil etishda quyidagi qoidalarga rioya qilish talab qilinadi.

1. O'yin qoidalari oddiy va aniq rasmiylashtirilgan, kichik yoshdagi bolalar uchun qulay va tushunarli bo'lishi kerak. Agar o'yin ayrim bolalar uchungina tushunarli bo'lsa, qolgan o'quvchilar yo qoidani tushunmaydi, yoki o'yinning mazmunini tushunmaydi. U holda bunday o'yin bolada qiziqish uyg'otmaydigan va yuzaki xo'jako'rsinga o'tkazilgan bo'lib qoladi.

2. Agar o'yin bo'lada kuchli reaksiya (ta'sir) ko'rsatib, aqliy faoliyat uchun yetarli ozuqa bermasa matematik ziyrakni va diqqatni rivojlantirmasa, u holda o'yin pedagogik maqsadlarni bajarishga imkon bermagan bo'ladi.

3. Agar bolalar uchun didaktik materallarini tayyorlash murakkab yoki o'yin paytida undan foydalanish juda ham noqulay bo'lsa, bo'nday o'yin ko'tilgan natijani bermaydi.

4. Jamoalar musobaqasi bilan bog'liq bo'lgan o'yinlarini o'tkazish paytda o'yin natijalarini ishtirok etayotgan barcha o'quvchilar jamoasi yoki tegishli shaxslar tomonidan nazorat qilish ta'minlangan bo'lishi kerak. Musobaqa natijalari ochiq, aniq va adolatli baholanib borilishi talab qilinadi. Hisoblashdagi xato, hisobni o'zini to'g'ri baholashdagi tushunmovchilik, g'oliblar haqida adolatsiz xulosalar chiqarishga olib keladi va o'z navbatida o'yin ishtirokchilarida norozilik paydo qiladi. Ayniqsa IV –III sinf o'quvchilari bilan o'yinlar o'tkazishda bu narsa tez-tez sezilib turadi. Ular

hakamlarning qayerda noto'g'ri xulosa chiqarganliklarini yaxshi ajratadilar va adolatsizlikni keskinlik bilan qoralaydilar. Agar bunday adolatsizlikni bolalar sezib qolsalar, u holda yaxshi taassurotlar bilan bir qatorda ularga ko'ngilsiz fikr-mulohazalarsalar ham saqlanib qoladi.

5. Agar har bir o'quvchi o'yinda faol ishtirak etsalar, shu paytdagina o'yin qiziqarli o'tadi. Bola o'yinda o'z navbatini kutib qolsa u o'yinda bolaning qiziqishi susayadi.

6. Agar darsda yoki sinfdan tashqari ishlarda bir necha o'yin o'tkazilayotgan bo'lsa, matematik mazmuniga ko'ra osonroq, so'ngra qiyinroq mashq navbatlanib turmog'i lozim, shuning bilan birgalikda juda yengil va ancha soddada o'yinlarni mashg'ulot oxirida o'tkazish maqul bo'ladi.

7. Agar bir necha mashg'ulotlarda fikrlar ta'sirining o'xshashligi bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar o'tkazilayotgan bo'lsa u holda soddadan murakkabga, konkretga abstraktga qarab borishdan iborat matematik prinsipga amal qilish kerak, bu qoidani ayniqsa mantiqiy mazmundagi o'yinlarni o'tkazishda amal qilish kerak.

8. Harakatli o'yinlar harakatsiz o'yinlar bilan almashinib tuzulishi kerak.

9. Matematikadan darsda yoki darsdan keyin o'tkaziladigan o'yin aniq meyoriga ega bo'lishi kerak. Agar meyoridan oshirilib yuborilsa bu holda bolalarni o'yindan boshqa hech narsani ko'rmasligiga olib kelishi mumkin.

10. O'tkaziladigan har bir o'yin bilish ahamiyatiga ega. Shu sababli undan aqliy vazifani birinchi o'ringa ko'tarib aqliy faoliyatdan taqqoslash analiz, sintez, mulohaza va aqliy hulosalar chiqarishda foydalanish kerak. U holda ular kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida faqat mantiqiy fikrlashni rivojlantiribgina olmasdan balki, to'g'ri, aniq qisqa nutq qilishga ham o'rgatadi. Bolalar didaktik o'yinlarda belgilar, tushunchalar orasidagi bog'lanish va aloqalarni zarur bo'lgan holda terminlarni to'g'ri so'zlar bilan ko'rsatib bera olsinlar.

«Yulduzlarni tartibga sol» o'yini

Oyin quydagicha tanishtiriladi:

Kompyuter ekrani o'rta qismida bo'yoqli reyaktiv samaliyot uchub o'tadi va qizil yulduzchalar sochadi. Yulduzchalarda sonlar berilgan bo'lib bir qatorda quydagicha

joylashtiriladi. 1, 2, 4, 3, 5, 8, 7, 6. Bu o`yinda kompyuterlar soniga qarab sinf o`quvchilarini ikki guruhga ajratib o`tkazish mumkin.

Bolalarga savol beriladi: “Yulduzlarni tartibga sol !” agar qatordan qaysi bir yulduzchani siljitish yoki qatordan chiqarish lozim bo`lsa bolalar kursor bilat harakat qilib, uncha katta bo`lmagan samolyot ko`rinishdagi uni pastdan yoki yuqoridan tegishli yulduzga to`g`irlaydi balki, yulduzchani qator bo`yicha siljitish lozim bo`lsa, u holda kursorni chapga yoki unga yaqin olib keladi. Shunday qilib 1 dan 8 gacha natural sonlar kletkasi ustida ishlab, bolalar mavjud sonlari bilan ish ko`radi, ammo, bu qatorni xotiradagi sonlar bilan to`ldirmaydi, lekin ketma-ketlikni tanqidiy baholab, o`rinlashtirishni bajaradi. Eng ma`suliyatli qadam 4 va 3 sonlarini almashtirib qo`yishdir.

Yana qator bo`ylab borishda bolalar endi yonma – yon to`rgan sonlarni emas, balki 8 bilan 6 sonlari o`rnini almashtirish zarurligini bilb olishadi. Bu o`rinda qiyinchilik birinchi qadamga nisbatan ancha ko`tariladi. Bu qadamda bola xatoga yo`l qo`ysa ta`limiy o`zgarish e`tiborga olingan. O`yinni bajarish jarayoni butun o`yin davomida qat`iy qoida asosida olib boriladi. Bu qoydalarining eng muhimi bolaning o`yinda olgan bilim va malakalri hisoblanadi yuqorida aytilgan o`yinda bola 1 dan 10 gacha natural sonlar ketma – ketligini bilmasa, u kompyuterdan foydalanishda xatoga yo`l quyishi mumkin, bu tabiiy holdir. O`quvchilarni kompyuterda o`yinlarni bajarishga tayyorlashda bolani ekrandagi kursordan va 4 ta klavish – “Yuqoriga ”, “pastga ”, “o`nga”, “chapga ”dan foydalanishga o`rgatish kerak. Bu o`yinda ko`rinib turibdiki, o`yinga tayyorlanish va uni bajarish boladan qat`iy o`yin qoydalarini bajarishni talab qiladi. Shunga o`xshash oddiy o`yinlarda ishtiroq etish unda malum rolni bajarish shu o`yin uchun belgilangan qoida asosida bajariladi. Shunisi ham borki. Bolalar o`yin qoidalarini mazmuniga va bajarish jarayonida bilb olishadi. O`qituvchi bolaning bundagi harakatini boshqarib turishi lozim bo`ladi.

«Adashmayman » o`yini

Bu oyinda bolalar doira shaklida tizilib turadilar. O`qituvchi o`yinda ishtiroq etayotgan o`quvchilardan biriga yaqinlashib tegadi va signal bo`yicha bola boshlaydi, 1... boshqalari esa hisoblashni 2, 3, 4, 5, 6 deb davom ettiradi va navbatdagi yitti

sonining o`rniga “Adashmayman” so`zini aytadi navbatdagi o`quvchi 8 keyingilari 9, 10, 11, 12, 13 deb sanashni davom ettiradi. Bunda faqat 7ga bo`linadigan sonlar o`rniga navbatdagi bola “Adashmayman” so`zini aytadi. Shunday qilib 70 gacha davom etadi. Hisoblashda adashgan bola (o`quvchi) doirada (safdan) chiqadi. Belgilangan vaqtgacha doirada qolgan o`quvchilar yutgan hisoblanadi. “Adashmayman” so`zini boshqa sonlar o`rnida ham ishlatish mumkin. Bu esa o`qituvchining qanday bo`lish jadvalini mustahkamlashni nazarda to`tishga bog`liqdir.

Xulosa

Ushbu bitiruv malaka ishida boshlang'ich maktab o'quvchilarining nomerlash metodikasini o'zlashtirish faoliyatini shakllantirish bilan bog'liq nazariy va amaliy tadqiqot natijasida " nomerlash metodikasini o'zlashtirish darajasi" tushunchasi mazmuni va uni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari aniqlandi, bu muammoni boshlang'ich maktab o'quvchilari matematik tayyorgarligiga nisbatan qo'llash shart-sharoitlari belgilandi.

Boshlang'ich maktab o'quvchilari nomerlash metodikasini o'zlashtirishning asosiy yo'nalishi sifatida rag'batlantirish; psixik jarayonlarni faollashtirish (qabul qilish, diqqat va hokazo); boshlang'ich ta'limdayoq rivojlanuvchi ta'lim g'oyalarini amalga oshira borib, o'quvchilar fikrlash faoliyatini rag'batlantirishga ko'proq urg'u berish belgilandi.

Bitiruv malaka ishida psixologik-pedagogik nuqtai nazardan yosh o'qituvchilarga nomerlash metodikasining o'ziga xosliklari, o'quv jarayonining didaktik ta'minoti, didaktik ishlanmalar mohiyati va yo'nalishi ko'rib chiqilib, materiallarning o'quvchilar bilish faoliyatini shakllantirish maqsad va vazifalariga muvofiqligi ilmiy, amaliy jihatdan asoslandi.

Boshlang'ich maktab o'quvchilari ta'limiga muammoli yondoshishni amalga oshirishning taklif etilayotgan uslublari, yo'llari, shakli va vositalari dastur materiallari o'quvchilarning sonlarni nomerlashni chuqur, mustahkam o'zlashtirishni ta'minlaydi. Ta'limga muammoli yondoshuv o'quvchilarning nomerlash metodikasini o'zlashtirishiga faolligini oshiradi, vazifalarni "o'z" usullari bilan bajarishga, mustaqil ishni o'z vaqtida ado etishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi.

Bitiruv malaka ishimizning olingan natijalari o'quvchilarning nomerlash metodikasini o'zlashtirishi faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining yetakchilik rolini, uning shaxsi, bilimi, ishga va o'quvchilarga bo'lgan munosabati, metodik mahoratining muvaffaqiyatli yechilishida katta ahamiyatga egaligini tasdiqladi.